

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 112 (1711), 2026-yil 4-iyun, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz.uz\_news



May sarhisobi

## FIDOYILIK KUN TARTIBI: 24/7

Yoxud “RIYOSIZ SO‘ZLAR” hamda “MILLAT SHAHKATI” da  
AKS ETGAN KECHA VA BUGUN TAHLILI

Davlatimiz rahbarining yillar davomida amal qilib kelayotgan kun tartibi yoki kundalik ish jadvali shu qadar tig‘iz va mukammalki, bir oy, bir hafta, bir kun o‘lchovida qamrab olingan yumushlar hamda mas‘ul mutasaddilar oldiga qo‘yilayotgan vazifa va topshiriqlar ko‘lami nafaqat ijrochilar, balki bu jarayonni yoritib borayotgan OAV vakillaridan ham tizimli yondashuvni talab qiladi. Prezidentimiz ishtirokidagi yig‘ilish, uchrashuv, qabul, tashrif, taqdimot hamda boshqa tadbirlar mazmun-mohiyatini bir urinishda ochib berish, maqsadini to‘liq ifoda eta bilish oson ish emas.

### Xalq manfaatiga xizmat qilayotgan loyihalar

Prezidentimiz 3-4-may kunlari Samarqandda bo‘lib o‘tgan Osiyo taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining 59-yillik yig‘ilishida ishtirok etdi. Forumning bosh mavzusi “Taraqqiyot chorrahalari: mintaqaning o‘zaro bog‘liq kelajagini ilgari surish” ekanini inobatga olsak, u global va mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini muhokama qilish uchun muhim xalqaro platforma vazifasini o‘tadi, deyishga asoslar yetarli.

Ishirokchilar birlamchi e‘tiborni “yashil” transformatsiya, energetik o‘tish, raqamlashtirish, investitsiyalarni jalb qilish, oziq-ovqat xavfsizligi, sanoatda yetkazib berish zanjirlarining barqarorligi kabi masalalarga qaratadi.

Sammitda 100 dan ortiq mamlakat delegatsiyalari, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki va boshqa institutlar rahbarlari va xorijiy hukumatlarning 2000 ga yaqin vakili,



yetakchi kompaniya va banklar, transmiliy korporatsiyalar top-menejerlari hamda nufuzli ekspertlar ishtirok etdi.

O‘zbekiston Prezidenti Osiyo taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashi 59-yillik yig‘ilishining ochilish marosimida nutq so‘zlab, bunday nufuzli anjumaning yurtimizda o‘tkazilayotgani O‘zbekistonga g‘urur va iftixor bag‘ishlashini ta’kidladi. Buyuk tarix va yorqin kelajakni o‘zida mujassam etgan yangi O‘zbekiston xalqaro miqyosdagi dolzarb masalalar muhokama etiladigan yirik maskanga aylanib borayotganini qayd etdi.

Davlatimiz rahbari keng ko‘lamli islohotlar natijalariga batafsil to‘xtalib, mamlakatimiz oxirgi o‘n yilda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda eng katta ijobiy o‘zgarish qilgan besh davlatdan biri bo‘lganiga alohida to‘xtaldi. So‘nggi yillarda iqtisodiyotimizga 150 milliard dollar xorijiy investitsiya kiritilib, minglab zamonaviy korxonalar ishga tushirildi. Bu davrda tovar va xizmatlar eksporti 3 karra o‘tdi, milliy iqtisodiyot hajmi esa 50 milliarddan 147 milliard dollarga yetdi.

— Eng muhimi, islohotlarimizda har bir oila, har bir insonning kundalik hayotini yaxshilashga asosiy e‘tiborni qaratdik. Biz o‘tgan davrda 8,5 million ehtiyojmand aholi daromadini oshirib, kambag‘allik darajasini qariyb 35 foizdan bugungi kunda 5,8 foizga tushirishga erishdik, — dedi Prezidentimiz.

Mamlakatimiz yetakchi nufuzli anjuman doirasida xorijiy delegatsiyalar rahbarlari bilan uchrashuvlar o‘tkazildi. Jumladan, Osiyo taraqqiyot banki prezidenti Masato Kanda, Koreya Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari, iqtisodiyot va moliya vaziri Ku Yun Chxol, Yaponiya moliya vaziri Satsuki Katayama, “ACWA Power” kompaniyasi rahbari Muhammad Abunayyan boshchiligidagi delegatsiyalarni qabul qildi. Uchrashuvlarda sheriklik aloqalarini kengaytirish va qo‘shma loyihalarni jadallashtirish masalalari ko‘rib chiqildi.

### Eng katta kuch, eng katta boylik

Keling, o‘yning asosiy bayramlaridan biri 9-may — Xotira va qadrlash kuni mavzusini lirik chekinish bilan boshlasak. 1-may kuni

Prezidentimiz “Buyuk Britaniya fuqarolari — marhum Jon va Fillis Emili Le Bretonlarni O‘zbekiston Respublikasining “Do‘stlik” ordeni bilan mukofotlash to‘g‘risida”gi farmoni imzoladi. Matni uncha katta bo‘lmagan hujjatda, jumladan, bunday deyiladi: “Ikkinchi jahon urushi davrida, g‘oyat tahlikali vaziyatda, o‘z hayotlarini jiddiy xavf-xatarga qo‘yib bo‘lsa-da, Jeri orolidagi fashistlar konslageridan qochib chiqishga muvaffaq bo‘lgan o‘zbekistonlik askar Boqijon Akramovga o‘z uyalaridan joy berib, uning jonini asrab qolganlari hamda ulkan jasorat va insonparvarlik fazilatlarini namoyon etganlari, dunyo xalqlari o‘rtasida tinchlik, do‘stlik va birodarlik g‘oyalarni targ‘ib etishda alohida o‘rnak ko‘rsatganlari uchun...”.

Ikkinchi jahon urushi yillarida boshlangan ushbu voqea bugun O‘zbekiston va Buyuk Britaniya xalqlari o‘rtasidagi do‘stlik va insoniy qadriyatlar ramziga aylangan. U BBC va Britaniyaning boshqa yetakchi ommaviy axborot vositalarida ham keng yoritildi.

► Davomi 3-beta

## O‘ZBEKISTON SANKT-PETERBURGDAGI XALQARO IQTISODIY FORUMDA O‘ZINING INVESTITSIYAVIY SALOHİYATINI TAQDIM ETADI

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2026-yil 4-5-iyun kunlari amaliy tashrif bilan Rossiyaga boradi va Peterburg xalqaro iqtisodiy forumida ishtirok etadi.



Peterburg xalqaro iqtisodiy forumi an’anaviy tarzda jahon iqtisodiyoti, investitsiyaviy hamkorlik va ishbilarmonlik aloqalarini rivojlantirishning dolzarb masalalarini muhokama qilish uchun yirik xalqaro maydonlardan biri bo‘lib kelmoqda.

Ushbu nufuzli forum dunyoning turli mintaqalaridan davlat tuzilmalari, xalqaro tashkilotlar, ishbilarmon doiralar va ekspertlar hamjamiyati vakillarini birlashtiradi.

O‘tgan yilgi forum tadbirlarida 144 davlatdan 24 mingdan ziyod vakil qatnashgan. Unda umumiy qiymati 6,5

trillion rubldan (taxminan 70 milliard AQSH dollari) ortiq 1116 ta bitim imzolangan. Bu xalqaro iqtisodiy forumning yuksak nufuzi va zamonaviy iqtisodiy kun tartibini shakllantirishdagi roli ortib borayotganidan dalolat beradi.

Ko‘p yillardan buyon forum xalqaro savdo, investitsiyaviy sheriklik, sanoat kooperatsiyasi va transport-logistika o‘zaro bog‘liqligini rivojlantirishga doir yondashuvlarni ishlab chiqish uchun nufuzli platforma maqomini saqlab kelmoqda.

► Davomi 2-beta

Munosabat

## YUKSAK E‘TIBOR XALQIMIZNING MA‘NAVIY QIYOFASIDA NAMOYON BO‘LADI

Haqiqatan shunday. Zotan, ezgu tuyg‘ular insonning murg‘ak qalbiga go‘daklik kezaridayoq ona allasi orqali singib boradi, keyinchalik esa kuy-qo‘shiqlar, ash‘or va badiiy so‘z san‘ati vositasida yanada mustahkamlanib, qalbimizda chuqur ildiz otadi. Mana shu ma‘naviy asos insonning dunyoqarashi va e‘tiqodini shakllantiradi, uni yurtiga sadoqat va ezgulik ruhida tarbiyalaydi.

Shu bois, Prezidentimizning madaniyat va san‘at sohasi vakillari bilan uchrashuvi hamda sohaning bir guruh fidoyi vakillarini davlat mukofotlari bilan taqdirlash marosimi menda chuqur va yorqin taassurot qoldirdi. Chunki bu muloqot yuqorida tilga olingan ma‘naviy poydevorni yanada mustahkamlash, inson qalbiga ta‘sir etuvchi san‘at va adabiyotni rivojlantirish yo‘lidagi navbatdagi muhim qadamdir.

Bu uchrashuvni oddiy rasmiy yig‘ilish emas, balki mamlakatimizda ma‘naviy taraqqiyotning yangi bosqichini belgilab bergan, milliy ruh va ijodiy muhitni yanada yuksaltirishga qaratilgan tarixiy muloqot sifatida qabul qildim. Boisi, bu yerda nafaqat sohadagi yutuqlar sarhisob qilindi, balki kelajak uchun katta maqsad va vazifalar ham belgilab berildi.

Bugun dunyoda inson ongi va qalbi uchun kurash tobora kuchayib borayotgan bir davrda yashayapmiz. Bunday vaziyatda kitob, teatr, kino, musiqa va adabiyot jamiyatning ma‘naviy immunitetini shakllantiradigan eng ta‘sirchan vosita ekanini alohida ahamiyat kasb etadi. Shu ma‘noda, madaniyat va san‘at sohasiga berilayotgan e‘tiborni yurtimiz kelajagiga qaratilgan strategik investitsiya sifatida baholash mumkin. Nega? Chunki aynan shu soha orqali millatning ma‘naviy qiyofasi yaratiladi, yosh avlodning dunyoqarashi shakllanadi va jamiyatning intellektual salohiyati yuksaladi. Shuning uchun madaniy muhit qanchalik boy va rang-barang bo‘lsa, jamiyatning barqarorligi va taraqqiyoti shunchalik mustahkam bo‘ladi.

► Davomi 2-beta

### Kambag‘allikdan farovonlik sari

## O‘ZGARISHLAR MEZONI: MEHNAT, TASHABBUS VA NATIJA



Joriy yil 24-aprel kuni davlatimiz rahbari raisligida birinchi chorak ko‘rsatkichlarini tarmoq va hududlar kesimida tanqidiy tahlil qilish va yilning qolgan davrida qilinadigan ishlar muhokamasiga bag‘ishlangan videosektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tgan edi. Unda hududlarda hanuzgacha ichki imkoniyatlar to‘liq ishga solinmayotgani, berilayotgan preferensiyalar va resurslardan foydalanilmayotgani, bu esa hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgani ta’kidlangandi.

► Davomi 4-beta

### Prezident tashrifidan so‘ng



## “KARKIDON” KO‘RKI SAYYOHLARNI ROM ETMOQDA

Farg‘ona viloyatining shimoli-sharqiy qismida joylashgan “Karkidon” suv ombori atrofidagi minglab gektar maydon asrlar davomida ko‘pning e‘tiboridan chetda qoldi. Tuya o‘rkachli poyonsiz kengliklar, tosh-shag‘aldan iborat, ko‘z ilg‘amas dala-dashtlar qarovsiz, kimsasiz edi...

Yangi O‘zbekistonda sayyohlikni rivojlantirishga qaratilgan hayotbaxsh loyihalar bu yerda yangi imkoniyat eshiklarini ochdi. Prezidentimiz Farg‘ona viloyatiga navbatdagi amaliy tashrif davomida ushbu maskanda bo‘lib, ezgu maqsad ijobati yo‘lida qilingan ulkan ishlarni alohida e‘tirof etdi.

Yangi turizm majmuasi Farg‘ona vodiysida yozgi dam olish, ekoturizm va faol hordiq chiqarish uchun eng jozibador manzillardan biriga aylanishiga ishonch bildirdi. Bu bejiz emas, albatta.

► Davomi 6-beta

## KASBIY TA‘LIM

Taraqqiyotimizning inson kapitaliga tayangan kuchi

Bugun kasbiy ta‘lim haqida so‘z yuritish — faqat o‘quv muassasalari, o‘quv rejalarini yoki diplomlar haqida gapirish emas. Bu, avvalo, yangi iqtisodiyot uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, hududlarda barqaror ish o‘rinlarini ko‘paytirish, yoshlarni munosib mehnatga olib kirish va mamlakat taraqqiyotini inson kapitali orqali ta‘minlash masalasidir.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining bugungi bosqichida eng muhim savollardan biri bunday: iqtisodiyotimiz tez sur‘atda rivojlanayotgan, sanoat, xizmat ko‘rsatish, qurilish, transport, energetika, agrar tarmoq va raqamli texnologiyalar sohasida yangi kasbiy talablar shakllanayotgan bir

paytda mehnat bozori uchun zarur amaliy ko‘nikmaga ega mutaxassislarni kim va qanday tayyorlaydi? Bu savolga eng to‘g‘ri va hayotiy javob kasbiy ta‘lim tizimi orqali beriladi.

► Davomi 5-beta

# O'ZBEKISTON SANKT-PETERBURGDAGI XALQARO IQTISODIY FORUMDA O'ZINING INVESTITSIVAVIY SALOHİYATINI TAQDIM ETADI

## Boshlanishi 1-beta

Forumning zamonaviy kun tartibi raqamli transformatsiya va yuqori texnologiyalardan tortib, energetika, infratuzilma hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishgacha bo'lgan keng ko'lamli yo'nalishlarni qamrab oladi.

O'zbekiston Prezidentining xalqaro iqtisodiy forumdagi ishtiroki mamlakatning tashqi iqtisodiy manfaatlarini ilgari surish, investitsiyalarni jalb etish va xalqaro ishbilarmonlik aloqalarini kengaytirishning muhim omili sifatida qaralmoqda.

Tashrif doirasida O'zbekiston Prezidenti forum yalpi majlisida nutq so'zlashi, shuningdek, qator ikki tomonlama uchrashuv va muzokaralar o'tkazishi ko'zda tutilgan.

Forum istiqbolli investitsiyaviy tashabbuslarni ilgari surish, sanoat kooperatsiyasi va transport-logistika imkoniyatlarini kengaytirish, O'zbekistonning shakllanayotgan Yevrosiyo iqtisodiy makonidagi o'rini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston delegatsiyasi kun tartibida mamlakatimizni strategik sheriklik va itifoqchilik munosabatlari bog'lab turgan Rossiya bilan ko'p qirrali aloqalarni rivojlantirish alohida o'rin egallaydi. Ikki davlat o'rtasida diplomatik munosabatlar 1992-yil 20-martda o'rnatilgan.

Keyingi yillarda ikki tomonlama hamkorlikning mustahkam shartnomaviy-huquqiy bazasi, jumladan, 2004-yilgi Strategik sheriklik to'g'risidagi shartnoma, 2005-yilgi Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnoma hamda 2022-yilgi Keng qamrovli strategik sheriklik to'g'risidagi deklaratsiya shakllantirildi.

Oliy darajadagi muntazam muloqotlar siyosiy muloqotning yuqori darajasidan va ikki tomonlama munosabatlarning izchil rivojlanib borayotganidan dalolat beradi. Ikki mamlakat hukumatlari, parlamentlari, tashqi siyosat idoralari, hududlari va ishbilarmon doiralari o'rtasidagi hamkorlik faol mustahkamlanib bormoqda.

Iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiya, hukumat rahbarlari darajasidagi qo'shma komissiya hamda Rossiya — O'zbekiston mintaqalararo forumi amaliy hamkorlikning muhim mexanizmi bo'lib xizmat qiladi. Bu formatlar savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, qo'shma loyihalarni ilgari surish va hududlararo hamkorlikni mustahkamlashga yordam beradi.

O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik so'nggi yillarda barqaror ijoiy o'sish sur'atini namoyon etmoqda va ikki tomonlama hamkorlikning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Ikki mamlakat o'rtasida erkin savdo rejimi amal qiladi, bu esa o'zaro tovar ayirib olish, sarmoyaviy hamkorlik va sanoat kooperatsiyasini izchil kengaytirishga xizmat qilmoqda.

2025-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi tovar ayirib olish hajmi 8,5 foizga o'sib, 12,9 milliard dollarni tashkil etdi. Bunda eksport 4,3 milliard, import esa 8,6 milliard dollarga yetdi. 2026-yilning yanvar-aprel oylarida o'zaro savdo hajmi 4,5 milliard dollarni tashkil etdi. Bu o'tgan yilning shu davridagi ko'rsatkichdan 35 foizga ko'pdir.

Sarmoyaviy hamkorlik ikki tomonlama aloqalar tizimida muhim o'rin egallaydi. Qo'shma loyihalarning joriy portfeli 43,9 milliard dollarga baholanmoqda. Konmetallurgiya, yoqilg'i-energetika, kimyo, agrar soha, mashinasozlik va to'qimachilik tarmoqlari ustuvor yo'nalishlar sirasiga kiradi.

2026-yil 1-may holatiga ko'ra, O'zbekistonda Rossiya sarmoyasi ishtirokidagi 3,2 mingdan ortiq korxonalar faoliyat yuritmoqda. Bu Rossiya biznesining yuqori darajadagi ishbilarmonlik faolligini hamda ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdorligini aks ettiradi.

Shu bilan birga, tomonlar transport-logistika sohasidagi o'zaro bog'liqlikni

kengaytirish va yangi kooperatsiya zanjirlarini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratmoqda. Peterburg xalqaro iqtisodiy forumi doirasida qo'shma yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni ilgari surish, sarmoyaviy loyihalarni amalga oshirish va yangi transport yo'laklarini rivojlantirishga alohida urg'u berilishi kutilmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, xalqaro iqtisodiy forum ishbilarmon doiralari o'rtasidagi amaliy hamkorlikni mustahkamlash, istiqbolli tashabbuslarni ilgari surish va iqtisodiy hamkorlikning yangi yo'nalishlarini ishlab chiqishda samarali mexanizm vazifasini o'taydi.

**An'anaviy tarzda Peterburg xalqaro iqtisodiy forumi ko'p tomonlama hamkorlik va xalqaro aloqalarni rivojlantirish uchun ham muhim maydon bo'lib xizmat qiladi. Turli davlatlar, xalqaro tashkilotlar va yetakchi ishbilarmon doiralari vakillarining ishtiroki O'zbekistonning tashqi iqtisodiy manfaatlarini yanada kengroq ilgari surish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.**

O'zbekiston delegatsiyasining Peterburg xalqaro iqtisodiy forumidagi ishtiroki o'zaro manfaatli O'zbekiston — Rossiya strategik sherikligini yanada kengaytiradi, qo'shma sarmoyaviy tashabbuslarni ilgari surishga va iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashga qo'shimcha turki beradi.

“Dunyo” AA

## Munosabat



## Boshlanishi 1-beta

Uchrashuvda bildirilgan tashabbuslar, xususan, 21 ta yo'nalish bo'yicha ijodiy birlashmalar tashkil etish, ustoz ijodkorlar hamda yirik tashkilot rahbarlarini hamrais sifatida jalb qilish, shuningdek, mahalladan boshlab to respublika miqyosigacha bo'lgan ijodiy tanlovlar tizimini yo'lga qo'yish kabi ezu ishlar, nazarimda, sohada yangi, tizimli va izchil ma'naviy islohotlar davri boshlanganini yaqqol namoyon etmoqda. Zero, mazkur tashabbuslar ortida faqat tashkiliy o'zgarish emas, balki ijod ahli taqdiriga, yosh iste'dodlar kelajagiga chuqur e'tibor va g'amxo'rlik mujassam.

Eng muhimi, bunday mukammal tizim yosh iste'dodlarni erta aniqlash, ichki salohiyatini ochib berish va, asosiysi, ularni

**San'at sohasida faoliyat yuritayotgan pedagog sifatida ishonch bilan ayta olamanki, bunday g'amxo'rlik va e'tibor yoshlarimizni yanada ruhlantiradi, ularni o'z ustida tinimsiz ishlash, izlanishga undaydi. Negaki bugungi yosh avlod tirishqoq, intiluvchan. Bir so'z bilan aytganda, zamon bilan hamnafas.**

yo'qotib qo'ymasdan, to'g'ri yo'lga boshlash imkonini beradi. Chunki iste'dod o'z-o'zidan shakllanmaydi. U e'tibor, yo'l-yo'riq va to'g'ri tarbiya orqali kamol topadi. Agar biz, katta avlod vakillari iqtidorli har bir yoshga o'z vaqtida e'tibor qaratma olsak, albatta, kelajakda yurtimiz san'ati va madaniyati yanada yuksaladi.

Ayniqsa, har yili Milliy ijodkorlar qurultoyini o'tkazib borish, eng yaxshi ijodiy yutuqlarni e'tirof etish, munosib g'oliblarni rag'batlantirish hamda ularning asarlarini keng jamoatchilikka yetkazish kabi tashabbuslar juda katta ahamiyatga ega. Menimcha, bu kabi anjumanlar ijodkor uchun nafaqat baholash maydoni, balki katta ruhiy quvvat ham beradi.

Chunki ijodkor o'z mehnati qadrlanganini his etsa, yanada ishtiyoq bilan izlanadi, yangi asarlar yaratishga intiladi. Shu bilan birga, bunday tadbirlar jamiyatda ham san'atga qiziqishni oshirib, ma'naviy muhitni yanada boyitadi.

Shu o'rinda ijodkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan izchil islohotlar va qabul qilinayotgan qarorlar chinakam e'tibor va yuksak g'amxo'rlik namunasini ekanini ta'kidlash joiz. Ijodkorlar mehnatini qadrlash, ularga munosib sharoit yaratish borasidagi ishlar bugungi kunda nafaqat moddiy qo'llab-quvvatlash, balki ma'naviy rag'batning ham yangi bosqichga ko'tarilganini yaqqol namoyon etmoqda.

Jumladan, ijodkorlarga har oylik gonorarlar to'lanishi, ularni zamonaviy transport xizmatlari bilan ta'minlash, zarur hollarda tibbiy ko'mak ko'rsatish tizimi yo'lga qo'yilishi, shuningdek, ijod uylari va mahorat maktablari tashkil etilishi kabi

# YUKSAK E'TIBOR XALQIMIZNING MA'NAVİY QIYOFASIDA NAMOYON BO'LADI



Munajat YO'LCHIYEVA, Oliy Majlis Senati a'zosi

imkoniyatlar uning erkin va samarali faoliyat yuritishi uchun nihoyatda muhimdir. Bu kabi tashabbuslar nafaqat ijod ahlini qo'llab-quvvatlash, balki milliy madaniyatimizni yanada rivojlantirish, yosh iste'dodlarni

kashf etish va tarbiyalashda ham ahamiyatli. Shaxsan men bu islohotlarni yurtimizda san'at va madaniyatga bo'lgan yuksak hurmatning yorqin ifodasi deb bilaman. Bu e'tibor ijodkorlarni yangi asarlar yaratish, xalqimizning ma'naviy dunyosini boyitish yo'lida yanada ilhomlantiradi.

Muloqotda qalbimni to'liqlantirgan yana bir muhim jihatta to'xtalib o'tmoqchiman. Yosh iste'dodlarga e'tibor va g'amxo'rlik masalasida juda katta maqsad va vazifalar belgilandi. Biz yoshligimizda bunday imkoniyatlarni, xususan, xorijda tahsil olish, zamonaviy ijod maktablari va yangi tajribalar bilan yaqindan tanishish kabi sharoitlar haqida faqat orzu qildirik, xolos. Hozir esa bu imkoniyatlar real hayotga aylandi. Yoshlar uchun keng imkoniyatlar eshigi ochiq. Bu chin ma'noda quvonarli holdir.

Har yili yuzlab iqtidorli yigit-qizlar xorijiy mamlakatlarda o'qib kelayotgani ularning dunyoqarashi kengayishiga, zamonaviy bilim va tajribalarni egallashiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, "Ijodga investitsiya" jamg'armasi tashkil etilishi yoshlar taqdiriga, ularning iste'dodiga yuksak e'tiborning amaliy ifodasi bo'ldi, desak adashmaymiz.

San'at sohasida faoliyat yuritayotgan pedagog sifatida ishonch bilan ayta olamanki, bunday g'amxo'rlik va e'tibor yoshlarimizni yanada ruhlantiradi, ularni o'z ustida tinimsiz ishlash, izlanishga undaydi. Negaki bugungi yosh avlod tirishqoq, intiluvchan. Bir so'z bilan aytganda, zamon bilan hamnafas.

Ustoz va shogird an'anasi qaytadan mustahkamlanayotgani ayni muddaodir. Chunki iste'dod qanchalik kuchli bo'lmasin, u ustoz tarbiyasi va yo'l-yo'rig'isiz to'liq kamol topa olmaydi. Bugungi imkoniyatlar esa aynan ana

shu ustozlik maktablarini yanada jonlantirib, ijodiy muhitni boyitishga xizmat qilmoqda.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, har bir badiiy asar, xoh qo'shiq, xoh musiqa yoki adabiy ijod mahsuli bo'lsin, avvalo, o'z muallifiga halol va real daromad keltirishi kerak. Buni ijodkor taqdiri bilan bog'liq eng muhim masalalardan biri deb bilaman.

Chunki ijod shunchaki mehnat emas, balki qalbda jo'sh urgan ruhiy kechinmalar, yillar davomida to'plangan tajriba va izlanishlar samarasidir. Ana shu mehnatga munosib va adolatli baho berilishi, ijodkor o'z asaridan foyda ko'rishi nihoyatda muhim.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, mualliflik huquqini himoya qilish tizimini kuchaytirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri sifatida kun tartibiga chiqmoqda. Agar ijodkor o'z asari himoyalanganini, mehnati qadrlanayotganini his etsa, u yanada katta ishtiyoq va mas'uliyat bilan ijod qiladi. Shu bois, mualliflik huquqini himoya qilish tizimini takomillashtirish borasidagi fikrlarni to'la qo'llab-quvvatlayman.

Atrofimizda axborot va ma'lumotlar shunchalik ko'pki, ular orasida inson ongini salbiy o'zanga burib yuborishga qaratilgani ham talaygina. Ya'ni global makonda axborot xurujlari soat sayin kuchayib bormoqda. Bunday sharoitda unga qarshi turishning yagona yo'li ma'naviy immunitetni shakllantirishdir. Bu esa teatr, kino, badiiy asarlar orqali shakllanadi va saqqal topadi.

Tabiiyki, asarlar ham ma'naviy ozuqa beradigan darajada zalvorli bo'lishi lozim. Shundan kelib chiqqan holda muloqotda davlat buyurtmalari asosida yangi asarlar yaratish, xususiylarini ta'kidlash zarur. Bunday sharoitda unga qarshi turishning yagona yo'li ma'naviy immunitetni shakllantirishdir. Bu esa teatr, kino, badiiy asarlar orqali shakllanadi va saqqal topadi.

Tabiiyki, asarlar ham ma'naviy ozuqa beradigan darajada zalvorli bo'lishi lozim. Shundan kelib chiqqan holda muloqotda davlat buyurtmalari asosida yangi asarlar yaratish, xususiylarini ta'kidlash zarur. Bunday sharoitda unga qarshi turishning yagona yo'li ma'naviy immunitetni shakllantirishdir. Bu esa teatr, kino, badiiy asarlar orqali shakllanadi va saqqal topadi.

Ayniqsa, teatr sohasida kuzatilayotgan ijodiy o'zgarishlar, sahna asarlariga talab ortishi va tomoshabinlar ko'payishi ushbu sohadagi islohotlar to'g'ri yo'nalishda ekanini ko'rsatmoqda. Binobarin, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, qaysi millatning adabiyoti boy, musiqasi yurakka yaqin, teatri hayotiy va kinosi ta'sirchan bo'lsa, o'sha millatning ovozi dunyoda baland yangraydi. Bu fikr har bir ijodkor uchun katta mas'uliyat va shu bilan birga ulkan sharafdur.

Bugun yurtimizda madaniyat va san'atga munosabat chin ma'noda butunlay yangi bosqichga ko'tarildi. Ijod ahliga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor, ularning ijtimoiy himoyasi va kasbiy kamoloti uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar yangi O'zbekistonning ma'naviy qiyofasida yorqin aksini topmoqda.

Shu ma'noda, davlatimiz rahbariga bu ezu siyosat uchun samimiy minnatdorlik bildirmoqchiman. Chunki aynan Prezidentimiz tashabbusi va g'amxo'rliqi tufayli ijod ahli o'z mehnati qadr topayotganini, uning so'zi va ijodi jamiyat uchun kerak ekanini his etib yashamoqda. Bu esa eng katta rag'bat va ishonchdir.

Aminmanki, ana shunday e'tibor va g'amxo'rlik bardavom bo'ladi va natijada milliy madaniyatimiz yanada yuksaladi, ijodiy muhit yanada boyiydi, xalqimizning ma'naviy dunyosi esa mustahkamlanib boraveradi.

## Izhor G'AROYIB KUN HAYRATI

2026-yil 28-may kuni qiziq voqea ro'y berdi. Kutilmaganda Prezidentimizning "Madaniyat, san'at va adabiyot sohalari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, "Shuhrat" medali bilan taqdirlanganim haqida xabar kelib qoldi. Qizig'i, ismim ham Shuhrat.

Bu yog'i, o'sha kun tug'ilgan kunim ham edi. Nafaqat men, bir oiladan uch kishi bir sanada tug'ilganmiz deng. Qolaversa, bu yilgi shukrona kunlarimiz Qurbon hayitiga to'g'ri kelgan, qarindosh-urug' to'kin dasturxon atrofida jamuljam edi. Hamma tabriklay boshladi. Qarasam, chindan o'z ismim bilan ataluvchi medal bilan taqdirlandimban.

Yolg'iz otning changi chiqmaydi, deyдилar. O'ttiz yillik jurnalistik faoliyatim mobaynida Denov tumanidagi "Chag'oniyon", "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" va 2023-yil 1-yanvarda Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan "Jadid" gazetalarda kim bilan yelkama-yelka ishlagan bo'lsam, barchasining bu mukofotida o'z ulushi bor. Ayniqsa, rahmatli ustozim Zoyir

Mamajonovning hassos hissasini e'tirof etmasam bo'lmaydi. U surxondaryolik zabardast adib va shoirlarimiz o'ziga ustoz deb bilgan Tessa Saydaliyev, Mengziyo Safarovdek vohadosh adiblarning munosib izdoshi edi. Katta avlod vakili sifatida ular bugungi o'zbek adabiyoti va jurnalistikasida o'z o'miga ega bo'lgan ko'plab ijodkorlarga ustozlik qilganini ko'pchilik bilmaydi.

Prezidentimiz farmoni bilan tanishar ekanman, mukofotlanganlar orasida yosh ijodkorlar ko'pligiga ishonch hosil qildim. Nafaqat yosh avlod, o'rta va keksa avlod vakillari qatorida bir guruh marhum madaniyat, san'at va adabiyot sohalari vakillarining ham taqdirlanganidan xursand bo'ldim. Inson qadr-qimmatini, el-



Shuhrat AZIZOV, shoir, "Shuhrat" medali sohibi

yurt ravnaqi yo'lida qilingan xizmatlar e'zozlanayotganidan, millatning tarixiy xotirasiga har qachongidan ko'proq hurmat-ehtirom ko'rsatilayotganidan ruhlandim. Qilingan xizmatlar yerda qolmasligini, yuk ko'targan, albatta, qachondir yuzaga chiqishini his etdim.

Oilam, qavmu qarindoshlarim, hamkasblarim, hatto marhum ustozlarim ruhini shod qiladigan siyovdan boshim ko'tka yetdi. Hammadan ham ko'proq ota-onamga bir olam quvonch hadya etgan Prezidentimizga, sevinchimga sherik bo'lgan barchaga o'z minnatdorligimni bildiraman.

## Dildagi gaplar

1-iyun kuni Prezidentimizning madaniyat va san'at sohasi vakillari bilan o'tkazgan uchrashuvini ijtimoiy tarmoqlar orqali diqqat bilan kuzatib bordim. Davlatimiz rahbari so'zining avvalida madaniyat va san'at xalq ma'naviyati, jamiyat tafakkuri va yoshlar tarbiyasida beqiyos o'rin tutishini ta'kidladi. Bugun dunyoda inson ongi va qalbini egallash uchun kurash kuchayib borayotgani, bunday sharoitda kitob, teatr, kino, musiqa va adabiyot jamiyatning ma'naviy immunitetini mustahkamlaydigan eng ta'sirchan vositalar ekanini qayd etildi.



Jamoliddin HOTAMIY, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi

Uchrashuvga tayyorgarlik jarayonida ijodkorlar bilan muloqot qilingani, madaniyat va san'at obyektlaridagi holat o'rganilgani

# MILLIY O'ZLIKNI SAQLAB QOLISHDA IJODKORLARNING O'RNI BEQIYOS

ta'kidlandi. Davlatimiz rahbari bugungi muloqot sohadagi muammolarga yechim topish, adabiyot, madaniyat, san'at va kreativ iqtisodiyotda yangi muhit yaratishga qaratilganini bildirdi. Avvalo, ijodkorlarni rag'batlantirish va yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi tizim joriy etilishi belgilandi.

Darhaqiqat, yurt taraqqiyoti faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar, yangi qurilishlar yoki texnologik yutuqlar bilan belgilanmaydi. Jamiyatning ma'naviy qiyofasi, madaniy saviyasi va milliy o'zligini saqlab qolishida ijodkorlarning o'rni beqiyos. Shu ma'noda, natija ko'rsatgan ijodkorlarni rag'batlantirish, ularning mehnatini munosib qadrlashga qaratilgan yangi tashabbuslar e'tiborga loyiq.

Taklif etilayotgan tizimga ko'ra, har yili Milliy ijodkorlar qurultoyi o'tkazilib, yil davomida samarali ijod qilgan san'at va adabiyot vakillari taqdirlanadi. Bu, avvalo, ijod ahlining jamiyatdagi nufuzini oshirishga

xizmat qiladi. Chunki ko'pincha ijod mahsuli ko'zga ko'rinmas mehnat evaziga yaratiladi. Birgina qo'shiq, she'r yoki roman ortida yillar davom etgan izlanish, ruhiy kechinmalar va mashaqqatli mehnat yotadi. Shunday ekan, shu mehnatning davlat tomonidan e'tirof etilishi adolatli qaror sifatida baholanishi mumkin.

Bu borada belgilab berilgan mezonlar ham e'tiborga molik. Musiqa sohasida xalqaro tanlovlar g'oliblari, asarlar xalqaro sahnalarda ijro etilayotgan san'atkorlar, adabiyotda esa sabab adadlarda chop etilgan yoki teatr va kino sahnasiga olib chiqilgan asarlar mualliflarining rag'batlantirilishi ijodkorlarni yanada faol ishlashga undaydi. Bu esa sog'lom ijodiy raqobat muhitini shakllantirishi mumkin.

Ayniqsa, sovrindorlarga har oy qalam haqi berilishi muhim ahamiyatga ega. Chunki ko'plab iste'dodli ijodkorlar moddiy qiyinchiliklar baxtsiz o'z salohiyatini to'liq

namoyon eta olmaydi. Doimiy rag'bat esa ularga ijod bilan jiddiy shug'ullanish, yangi asarlar yaratish imkonini beradi. Transport va tibbiyot xizmatlari bo'yicha berilayotgan imtiyozlar ham ijodkorlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga xizmat qiladi. Biroq har qanday tashabbus singari bu tizimning muvaffaqiyati ham uni amalga oshirish mexanizmlariga bog'liq.

Eng avvalo, g'oliblarni saralash jarayoni mutlaqo shaffof va xolis bo'lishi zarur. Aks holda, ijodiy muhitda e'tirozlar va noroziliklar paydo bo'lishi mumkin. Masalan, "eng yaxshi natija" tushunchasi faqat son yoki adad bilan emas, asarning badiiy qiymati, jamiyatga ta'siri va ma'naviy ahamiyati bilan ham baholanishi lozim. Chunki ba'zan katta nusxada chop etilgan asar ham san'at darajasiga ko'tarilmaydi, aksinchi, kam nusxada tarqalgan asar katta ma'naviy qiymatga ega bo'lishi mumkin.

Yana bir muhim jihat — yosh ijodkorlar

masalasi. Taniqli va allaqachon e'tirof topgan ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash bilan birga endigina ijod maydoniga kirib kelayotgan iste'dod egalariga ham imkoniyat yaratish kerak.

Uchrashuvda juda ko'p ijodiy takliflar ilgari surildi. Ijodkor jurnalist sifatida kaminani g'oyat to'liqlantirgan va quvontirgan jihat shu bo'ldiki, endi ijodkorlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha ham qator imtiyozlar belgilandi. Har yili ming nafar shoir va yozuvchi, madaniyat va san'at vakili, muzey xodimi va rassomlarga uy-joy olish uchun ipoteka krediti dastlabki to'lovining 50 foizi qoplab beriladi. Boshqa hududdan kelib ishlayotgan soha vakillariga uy-joy ijarasi xarajatlari uchun Toshkent shahrida oyiga 2,5 million so'mgacha, viloyatlarda 1 million 600 ming so'mgacha kompensatsiya to'lanadi.

Umuman olganda, ushbu yo'nalishda qabul qilingan qaror ijodkor mehnatini qadrlash, milliy madaniyat va adabiyotni rivojlantirish yo'lida tashlangan muhim qadam. Ijodkorning qadri baland bo'lgan jamiyatda ma'naviyat ham yuksaladi, milliy qadriyatlar mustahkamlanadi. Eng muhimi, bu kabi e'tibor va rag'bat yangi asarlar, iste'dodlar, qolaversa, yangi yutuqlar yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Demak, ijodkorni qo'llab-quvvatlash aslida millatning ma'naviy kelajagiga investitsiya kiritishdir.

# FIDOYILIK KUN TARTIBI:

## yoxud "RIYOSIZ SO'ZLAR" hamda "MILLAT SHAVKATI" da

### AKS ETGAN KECHA VA BUGUN TAHLILI



**Nodir MAHMUDOVI,**  
**"Yangi O'zbekiston" muxbiri**

#### Boshlanishi 1-betda

Oddiy o'qituvchi Boqijon Akramov urushga safarbar etilgach, janglardan birida asir olingan va konslagerga jo'natilgan. 1942-yil iyulda u 2000 asir bilan birga Jersi oroliga olib kelib, yer osti tunnelar qurilishiga jalb etilgan. Uzoq davom etgan ochlik va og'ir sinovlarga qaramay, asirlikdan qochishga muvaffaq bo'lgan.

Le Bretonlar oilasi esa qochqin askarga o'z uyidan boshpana berib, uni deyarli uch yil fashistlardan yashirib kelgan. 1945-yil mayda Boqijon Akramov o'z Vatani — O'zbekistonga qaytib kelgan. Ikkinchi jahon urushi davrida sodir bo'lgan ushbu voqea oradan 80-yildan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa-da, xalqlar o'rtasidagi insoniylik va o'zaro mehr timsoli sifatida qadrlanmoqda. Mamlakatimizning yuksak davlat mukofoti marhum oilaning Jersi orolida istiqomat qilayotgan farzandlari — Dalsi va Alan Le Bretonlarga tantanali ravishda topshirildi.

Ikkinchi jahon urushining achchiq tarixi, u olib kelgan mislsiz kulfat va musibatlar insoniyat xotirasidagi o'chmani yo'q. Aksincha, bu muhim xotiralar bizga tinchlik va osoyishtalik naqadar bebaho ne'mat ekanini doimo eslatib turadi.

O'zbekiston Prezidenti 8-may kuni poytaxtimizdagi G'alaba bog'iga tashrif buyurib, sana munosabati bilan tashkil etilgan xotira marosimida ishtirok etdi. Davlatimiz rahbari bog'dagi "Millat fidoyilari" xiyobonida ham bo'lib, mustaqillik yillarida mamlakatimiz himoyasi yo'lida halok bo'lgan harbiy xizmatchi va huquq-tarifat idoralari xodimlari xotirasiga hurmat bajo keltirdi.

— Bir yil oldin mana shu hududda "Millat fidoyilari" majmuasini barpo etganimiz, albatta, bejiz emas. U Vatani himoyasi har bir avlodning muqaddas ishi ekanini, vatanparvarlik an'analarini davomiylikni eslatib turadi, — dedi Prezidentimiz.

Shu kuni Prezidentimiz Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va mehnat fronti faxriyrlarini ziyorat qilib, bayram bilan tabrikladi. Qurolli Kuchlar Bosh harbiy klinik hospitalida Akmal ota Akramov, Vera Juravskaya, Hasanboy ota Xalmatov va Vladimir Alekseyev bilan dildan suhbatlashdi. Nuroniylarning hol-ahvoli va salomatligi bilan qiziqdi. Ularning mashaqqatli hayot yo'li hamda ko'rsatgan jasoratlarini alohida e'tirof etdi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari O'zbekiston xalqiga bayram tabrigi yo'lladi. Unda yangi O'zbekistonda inson qadriini ulug'lash, xususan, urush va mehnat faxriylari, keksa avlod vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning sog'lom va mazmunli hayot kechirishi uchun zarur sharoit yaratishga qaratilgan ishlar izchil davom ettirilishi belgilandi.

O'zbekiston yetakchisi 9-may kuni Moskva shahrida Ikkinchi jahon urushidagi g'alabaniing 81 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbirlarda ishtirok etdi.

#### Savdo, iqtisodiyot, investitsiya va ekologiya

Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning taklifiga binoan mamlakatimiz yetakchisi 15-may kuni amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo'ldi. Turkiston shahrida Turkiy davlatlar tashkilotining "Sun'iy intellekt va raqamli rivojlanish" mavzusidagi norasmiy sammitida ishtirok etdi. Yig'ilishda savdo-iqtisodiyot, investitsiya, transport-kommunikatsiya va ekologiya sohaslarida mintaqaviy hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

Prezidentimiz sammitdagi nutqida ko'p qirrali munosabatlarga tizimli tus berish bo'yicha o'zining dolzarb vazifalar turganini qayd etdi. Qolaversa, sammitning sun'iy intellekt va raqamli rivojlanish mavzusiga bag'ishlangani ham bejiz emas.

— O'zbekistonda yashab ijod qilgan ulug' bobolarimiz — Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek algoritmi, matematika, astronomiya va fizika fanlari ravnagiga beqiyos hissa qo'shib, shu tariqa hozirgi sun'iy intellekt rivoji uchun

asos yaratganlar. Biz ajdodlarimizning ana shunday bebaho merosiga tayanib, bugun Turkiy dunyoning yangi raqamli taraqqiyot davrini barpo etyapmiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezidentimiz ushbu yo'l-nalishda hamkorlikni rivojlantirish uchun qator aniq tashabbuslarni ilgari surdi. Tadbir yakunida Turkiston deklaratsiyasi qabul qilindi.

Amaliy tashrif doirasida mamlakatimiz yetakchisi Qozog'iston rahbari bilan birga Turkiston shahridagi yangi masjid bilan tanishdi. O'zbekiston tomonidan bunyod etilgan majmuaning umumiy maydoni 7 gektardan ziyod. Unda 5000 dan ortiq kishi namoz o'qishi mumkin. Muhtasham ansambol to'rtta 70 metrlilik minora hamda asosiy zal va an'anaviy avyonlarni qamrab olgan uch qavatli bosh binodan iborat.

Turkiy davlatlar tashkilotining norasmiy sammiti doirasida davlatimiz rahbari Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov va Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an bilan uchrashuv o'tkazdi. Samimiy muloqotlar davomida oliy darajada ishlangan muhim kelishuvlar ijrosi yuzasidan faol muloqot va almashinuvlar davom etayotgani, vazirlik va idoralar o'rtasida yangicha tizim yaratilgani natijasida ko'p qirrali hamkorlik aloqalari samarali rivojlanayotgani qayd etildi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning taklifiga binoan 29-may kuni ushbu mamlakatga ikkinchi bor tashrif buyurdi. Mamlakatimiz yetakchisi Ostona shahrida Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashining navbatdagi yig'ilishi tadbirlarida kuzatuvchi davlat rahbari maqomida ishtirok etdi va nutq so'zladi.

Prezidentimiz nutqining avvalida YOII mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni izchil ravishda kengaytirish va chuqurlashtirish mamlakatimiz tashqi iqtisodiy siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolayotganini ta'kidladi. YOII davlatlari bilan o'zaro hamkorlik kompleks iqtisodiy sheriklik tuzini olganini bildirdi.

Joriy yilda Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi bilan uch yillik Hamkorlik rejasini amalga oshirish yakuniga yetayotgani bildirildi. Shu munosabat bilan kuz faslida Toshkent shahrida o'tkazilishi rejalashtirilgan Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi bilan qo'shma ishchi guruhning navbatdagi yig'ilishi doirasida yangi rejani qabul qilish taklif etildi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston kooperatsiya bo'yicha "yagona darcha" formatida Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi bilan hamkorlikda sheriklarni tanlaydigan, erkin sanoat zonalar negizida tashabbuslarni qo'llab-quvvatlaydigan, moliyalashtirishni jalb etishga ko'maklashadigan qo'shma loyiha ofisini ochishga tayyorligini bildirdi.

— YOII davlatlaridan keladigan yuqori texnologiyali rezidentlar uchun qo'shimcha rag'batlantiruvchi sharoitlarni ishlab chiqishga tayyormiz, — dedi O'zbekiston Prezidenti.

Energiya samaradorligini oshirish, toza texnologiyalarni joriy etish va mahsulotlarning uglerod sig'imini kamaytirishga qaratilgan Sanoatni "yashil" transformatsiya qilish qo'shma



dasturini qabul qilish bo'yicha taklif ham ilgari surildi. Qo'shma "yashil" loyihalar portfelini shakllantirish, moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini rivojlantirish, sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash orqali sanoatning ustuvor tarmoqlarini modernizatsiya qilish amaliy chora-tadbirlar sifatida dasturdan o'rin olishi mumkin.

— Bu endilikda mamlakatlarimiz uchun nafaqat ekologik kun tartibidagi masala, balki sanoatning uzoq muddatli raqobatdoshligini ta'minlaydigan muhim omilga aylanmoqda, — dedi O'zbekiston yetakchisi.

Turizm sohasida yurtimiz tomonidan "Markaziy Osiyo turistik halqasi" tashabbusi ilgari surilgani qayd etildi. Shu munosabat bilan davlatimiz rahbari YOII davlatlarini



mazkur turizm yo'nalishini ommabop raqamli platformalarda birgalikda ilgari surishga qo'shilishga taklif qildi.

#### Har qachongidan ham dolzarb masala

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyevning taklifiga binoan 17-18-may kunlari amaliy tashrif bilan Boku shahrida bo'ldi. BMTning Aholi punktlari bo'yicha dasturi shafeligida o'tkazilgan Butunjahon urbanizatsiya forumi 13-sessiyasining Yetakchilar sammitida ishtirok etdi va nutq so'zladi.

Forumda shaharlarni barqaror rivojlantirish, aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash, shahar muhiti sifatini oshirish, iqlim barqarorligi va uy-joyi moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqildi.

O'zbekiston yetakchisi forumning "Barcha uchun uy-joy: xavfsiz va barqaror shaharlar hamda hamjamiyatlar" mavzusi jadal urbanizatsiya sharoitida bugun har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etayotganini ta'kidladi. Tahlillarga ko'ra, XXI asr o'rtalariga borib, sayyoramiz aholisining qariyb 70 foizi shaharlarda istiqomat qiladi. Davlatimiz rahbari urbanizatsiya jarayonining jadallashuvi ijtimoiy muammolarni ham kuchaytirayotganini qayd etdi.

— Oddiy qilib aytganda, urbanizatsiya jarayonlari global barqarorlik va xavfsizlikka to'g'ri dalil va sir ko'rsatuvchi jiddiy omilga aylangan, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezidentimiz hududlarni obodonlashtirish va aholi turmushi sifatini oshirishda mahalla

o'rtalarini uyg'un rivojlantirish maqsadida "mutanosib urbanizatsiya" tamoyillarini keng joriy etishga chaqirdi. Xalqaro "Aqli va xavfsiz shaharlar alyansi"ni tashkil etish tashabbusini bildirdi. Tuzilma shahar boshqaruvini raqamli transformatsiya qilish sohasida texnologiyalar, standartlar va eng yaxshi tajribalar bilan almashish uchun platforma vazifasini bajaradi. Yoshlar va aholining ehtiyojmand qatlamlarini sifatli hamda arzon uy-joylar bilan ta'minlash maqsadida 2027-yilda Samarqand shahrida uy-joy qurilishiga moliya va investitsiyalarni jalb etishdagi yangicha yondashuvlar yuzasidan xalqaro forum o'tkazish taklif qilindi. Ekologik barqaror shaharlarni rivojlantirishni rag'batlantirish maqsadida BMT-Habitatning "Yashil shahar" xalqaro mukofotini ta'sis etish ham yana bir muhim tashabbus bo'ldi.

Shuningdek, O'zbekiston Prezidenti Butunjahon urbanizatsiya forumining 15-sessiyasini 2030-yilda Yangi Toshkent shahrida o'tkazishni va uning bosh mavzusini "Shaharlarni barqaror rivojlantirishda mahalla institutining o'rni" deb nomlashni taklif qildi. Boku shahriga amaliy tashrif doirasida davlatimiz rahbari Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev, Serbiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Vuchich, BMT Bosh kotibining o'rinbosari, BMTning Aholi punktlari bo'yicha dasturi (BMT-Habitat) ijrochi direktori Anaklaudiya Rossbax bilan uchrashuv o'tkazdi.

#### G'amxo'rlik va insonparvarlik ifodasi

27-may kuni dunyo musulmon olami muborak Qurbon hayiti bayramini nishonladi. Shu munosabat bilan 20-mayda Prezidentimiz "Muborak Qurbon hayitini nishonlash to'g'risida"gi qarorni imzoladi hamda sana arafasida O'zbekiston xalqiga bayram tabrigi yo'lladi.

Qarorda mamlakatimizda ijtimoiy davlat barpo etish, yurdoshlarimiz o'rtasida mehr-oqibatni kuchaytirish, yordamga muhtoj insonlarni qo'llab-quvvatlash, hech kimni mehr va e'tibordan chetda qoldirmaslik borasida bu bayramning bezavol an'analari biz uchun kuch-g'ayrat va ilhom manbai bo'lib xizmat qilishi qayd etilib, xalqimizning bayramini mazmunli o'tkazishi uchun qo'shimcha dam olish kunlari belgilandi.

Tabrikda esa tinchlik, mehr-oqibat va saxovat bayrami — Iyd al-Adha muqaddas dinimiz mohiyatida mujassam bo'lgan euzu g'oya va amallarni yaqqol ifoda etgan holda, hozir mamlakatimizda insonparvarlik ruhida keng ko'lami islohotlarimizning ma'no-mazmuniga uyg'un va hamohang ekanini barchamiz uchun yanada aziz va qadrlil bo'lib borayotgani ta'kidlandi.

"Ko'p millatli yurtimizda osoyishtalik, do'stlik va hamjihatlik muhitini mustahkamlash, yordamga muhtoj insonlar, muhtaram nuroniylar, xotin-qizlar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash, mahalla va xonadonlarni obod qilishga qaratilgan ishlarimizda Qurbon hayitining ezu an'analari kuch-g'ayrat va ilhom manbai bo'lib xizmat qilayotganini ta'kidlash lozim", deyiladi tabrikda.

Shuningdek, yana bir hujjat — "Muborak Qurbon hayiti munosabati bilan aholini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va mehr-saxovat

tadbirlarini samarali tashkil etish to'g'risida"gi qarorda esa xalqimizga xos mehr-oqibat, insonparvarlik, shukronalik, saxovat va bag'rikenglik kabi ezu fazilatlarini mujassam etgan muborak Qurbon hayiti kunlari aholini davlat tomonidan qo'shimcha qo'llab-quvvatlash maqsadlari mujassam.

Jumladan, ayrim toifadagi bemorlarning tibbiy tekshiruvdan o'tish, jarrohlik amaliyoti va davolanish xarajatlarini qoplash, og'ir va nogironlikni keltirib chiqaruvchi kasalliklarga chalingan 10 ming bola, onkologik, gematologik va onkogematologik tashxis qo'yilgan 2300 bemorni jarrohlik amaliyoti orqali davolash va boshqa ko'plab yo'nalishlar nazarda tutildi.

Bundan tashqari, Prezidentimiz 21-may kuni O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy, shayx Nuriddin Xolig'uzar bilan telefon orqali muloqot qildi. Suhbat muborak Qurbon hayiti arafasida, yurdoshlarimiz haj amallarini ado etayotgan qutlug' kunlarda bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari muftiy hazratlari orqali muqaddas Makka shahrida bo'lib turgan barcha hojjarimizni Qurbon hayiti bilan samimiy tabriklab, ularning elu yurtimiz tinchligi, xalqimiz farovonligi, yoshlarimizning baxt saodati yo'lida qilayotgan ezu duo va iltijolari qabul bo'lishini tiladi. Ziyoratchilarimizning salomatligi va kayfiyati haqida so'radi, ibodatlarni bajarishi uchun tashkiliy ishlarining borishi bilan qiziqdi.

Muftiy shayx Nuriddin Xolig'uzar Makka va Madina shaharlarida ziyoratchilarimiz uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratilayotgani, tashkiliy ishlar uyushqoqlik bilan o'tayotganini ta'kidladi. Bundan qalbida shukronalik hissi jo'shgan yurdoshlarimiz muqaddas joylarda turib, Yaratgandan mamlakatimiz tinchligi, xalqimiz farovonligini so'rab duolar qilayotganini ma'lum qildi.

\*\*\*

Davlatimiz rahbari tomonidan may oyida aholi salomatligini muhofaza qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish, tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ularning sifati hamda samaradorligini oshirish, sog'liqni saqlash sohasidagi davlat boshqaruvi va nazorat tizimini zamonaviy talablar asosida tashkil etish maqsadida qator hujjatlar ham imzolandi.

**P.S.** Odatda oy sarhisobiga bag'ishlangan maqolalarimizda davlatimiz rahbarining muayyan muddat — bor-yo'g'i 30 kunlik faoliyatidagi ayrim qirralarga o'txalib o'tamiz. Qadrli mushtariylar uchun yana shuni aytishni istadikki, may oyida gazetamiz sahifalari Prezidentimiz o'n yil mobaynida yuritayotgan xalqchil siyosatning tub mohiyatini ochib berishga qaratilgan zuvalasi pishiq maqolalarga boy bo'ldi.

Shulardan ikkitasini alohida tilga olish joiz. Bu O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azimning "RIYOSIZ SO'ZLAR" (12-may, 95-son) va siyosatshunos Qudratilla Rafiqovning "MILLAT SHAVKATI" (21-may, 102-son) maqolasi. Mustaqillik bayrami tobora yaqinlashayotgan, uni ko'tarinki ruhda o'tkazish ishtiyoqi har bir vatanparvar yurdoshimiz qalbiga g'urur baxsh etayotgan ayni kezlarda millatimiz oydinlari tomonidan bitilgan yuqoridagi ikki va boshqa qator maqolalarda bayon qilingan chuqur mushohadalarni tafakkurimizni boyitishga xizmat qilishi shubhasiz.

Bundan tashqari, 18-may kuni Ommaviy axborot vositalari uchun kontent tayyorlash markazida tarixiy va olamshumul islohotlarni ko'z oldimiza namoyon qiladigan, bir yillik yutuqlarimizni jamlagan, aniqrog' aytganda, Prezidentimizning 2025-yildagi sermahsul faoliyati, 24/7 rejimida tinimsiz mehnati, uyqusiz tunlar mashaqqati, xalq dardi bilan kuyib-yonish saodati xronologiyasi o'rin olgan asar — "YURT QAYG'USIDA 365 KUN" kitobi taqdimoti bo'lib o'tdi.

Kitob yurtimizdagi islohotlarning tarixiy miqyosi, davlat boshqaruvidagi yangi yondashuvlar hamda inson qadri ustuvor bo'lgan taraqqiyot modelini aks ettiruvchi muhim siyosiy-hujjati manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Uni o'qish va uqish, mohiyatini anglash va anglatish esa barchamiz uchun muqaddas mas'uliyatdir!

#### Mamlakat tarixida yorqin sahifa ochgan qahramonlar

Yana bir necha kundan keyin millionlab sport muxlislari kutgan futbol bo'yicha navbatdagi jahon chempionatiga start beriladi. 11-iyundan 19-iyulgacha davom etadigan to'rt yillikning asosiy bahslarida ilk bor O'zbekiston milliy terma jamoasi ham ishtirok etadi. Bugun o'zbek futbol dunyo arenalarida har qanday raqibga munosib qarshilik ko'rsata oladigan darajaga yetdi.

Mamlakatimiz yetakchisi 22-may kuni futbol bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zolari, murabbiylar shtabi, soha faxriylari va sport jamoatchiligi vakillari bilan uchrashuv o'tkazdi.

— Futbolchilarimizni O'zbekiston tarixida yangi sahifa ochgan zamonaviy qahramonlari deb aytish arziydi. Ular xalqimizga olam-olam quvonch bag'ishladi, — dedi davlatimiz rahbari terma jamoaning AQSH, Meksika hamda Kanada maydonlarida o'tadigan jahon chempionatiga yo'llanma olgani xalqimiz uchun tarixiy voqea bo'lganini ta'kidlab.

Uchrashuvda milliy terma jamoa bosh murabbiyi Fabio Kannavor boshchiligidagi murabbiylar shtabi faoliyati ham alohida qayd etildi. Prezidentimiz jahon chempionatida oson o'yin bo'lmasligini, milliy terma jamoa Portugaliya, Kolumbiya va Kongo kabi kuchli jamoalarga qarshi maydonga tushishini ta'kidladi.

— El-yurtimiz sizlarga ishonadi, Prezident sizlarga ishonadi. Boringlar, mardonavor o'ynanglar, Vatani sharafini munosib himoya qilinglar, — dedi davlatimiz rahbari.

Shuningdek, mamlakatimiz yetakchisi O'zbekiston milliy terma jamoasini jahon chempionatiga kuzatish marosimida ishtirok etdi. Yurtimizda futbol allaqachon har bir oilaning do'stiga aylanganini ta'kidlab, sportchilarimiz erishayotgan yutuqlardan ruhlangan farzandlarimiz orasidan ham kelajakda yangi chempionlar yetishib chiqishiga ishonch bildirdi.

\*\*\*

Davlatimiz rahbari huzurida may oyida yigimadan ortiq taqdimot va joriy kun tartibidagi dolzarb mavzularga bag'ishlangan yig'ilishlar bo'lib o'tdi. Prezidentimiz o'nga yaqin xorijiy nufuzli delegatsiyalarni qabul qildi va bir qator xorijiy yetakchilar bilan telefon orqali muloqot o'tkazdi.

Bundan tashqari, 29-Yevroosiyo iqtisodiy sammiti, Osiyo xotin-qizlarining ikkinchi forumi, Turkiy davlatlari tashkiloti Sudvalar kengashlari rahbarlarining IV yig'ilishi ishtirokchilariga, Axaltaka otlari bo'yicha "Sharq marvardi — 2026" jahon chempionati g'oliblariga va mamlakatimiz maktablarini bitiruvchi o'g'il-qizlarimizga tabrik yo'lladi.

28-mayda O'zbekiston Prezidenti "Madaniyat, san'at va adabiyot sohalari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida"gi farmonni imzoladi. Unga ko'ra, o'zining ko'p yillik samarali ilmiy-ijodiy faoliyati, yorqin va betakror iste'dodi bilan xalqimizning madaniy, badiiy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, milliy ma'naviyatimizni boyitish, mamlakatimizda madaniyat, san'at va adabiyot sohalari rivojlantirish, asriy an'analarimiz, boy merosimizni asrab-avaylash va yangi O'zbekistonda jahon miqyosida targ'ib etishga qo'shgan munosib hisssasi hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun bir guruh yurdoshlarimiz faxriy unvonlar, orden va medallar bilan mukofotlandi.

Shuningdek, "Mamlakatimizda madaniyat, san'at va adabiyot sohalari rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan bir guruh marhum ijodkorlarni mukofotlash to'g'risida"gi farmon ham e'lon qilindi. Hujjat bilan inson qadriini ulug'lash, ajdodlar xotirasiga munosib ehtirom ko'rsatish maqsadida bir guruh marhum ijodkorlar "Buyuk xizmatlari uchun", "El-yurt hurmati", "Fidokorona xizmatlari uchun", "Mehnat shuhrati", "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlandi.



Islohot odimlari

Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan ustuvor vazifalar biz, deputatlar zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi. Xalq vakili sifatida ularning ijrosi o'z vaqtida va samarali ta'minlanishi ustidan ta'sirchan parlament va deputatlik nazoratini o'rnatishimiz lozim.

www.yuz.uz yuz.uznew

**T**adbirkorlar — iqtisodiyotning mustahkam ustuni, yurt taraqqiyotining ishonchli suyanchi. Ular jamiyatga faqat mahsulot yoki xizmat emas, balki yangicha fikr, izlanish va bunyodkorlik ruhini ham olib kiradi.



# MUQOBIL SKORING MODEL — TADBIRKORLAR UCHUN YANGI IMKONIYAT VA RAG'BAT



Ravshan FOZILOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligini soddalashtirishga qaratilgan bilan ahamiyatlidir. Mazkur hujjat bilan 2026-yil 1-iyundan boshlab soliq solishning umumbelgilangan tartibiga o'tish uchun belgilangan chegaraviy miqdor bazaviy hisoblash miqdorining o'n ikki ming baravari etib tasdiqlangan biznes o'sishini rag'batlantirish va umumiy soliq rejimiga o'tish jarayonini yumshatishga, ayniqsa, tadbirkorlarga faoliyatini yanada kengaytirishga imkon beradi. Albatta, mazkur sohada qilinayotgan ishlar e'tiborga molik. Biroq kichik va o'rta biznes subyektlarining moliyaviy xizmatlardan foydalanishida ayrim to'siqlar hanuz saqlanib qolayotgani bu yo'nalishda izchil va ta'sirchan choralarni amalga oshirish zaruratini ko'rsatmoqda.

Prezidentimiz kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kengaytirish hamda moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirishga qaratilgan tadbirlar taqdimoti bilan tanishish davomida bu masalaga alohida e'tibor qaratib, sohadagi to'siqlarni bartaraf etish, tadbirkorlar uchun qulay va shaffof moliyaviy muhit yaratish bo'yicha aniq vazifalarni belgilab berdi.

Ayniqsa, raqamli moliyaviy platformani ishga tushirish bo'yicha bildirilgan taklif ayni muddabo'ldi. Chunki mazkur platforma orqali tadbirkor kredit olish uchun onlayn ariza berib, bir vaqtning o'zida bir nechta bankning tijorat takliflarini qabul qiladi va ularni o'zaro taqqoslab, o'zi uchun eng maqbul va qulay shartlarni tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Platforma "Elektron hukumat" tizimining raqamli ma'lumotlar bazalari bilan integratsiya qilinishi orqali kichik va o'rta biznes subyektlariga oid zarur ma'lumotlar avtomatik tarzda shakllantirilib, banklarga taqdim etiladi. Natijada kredit ajratish jarayonida hujjat yig'ish bilan bog'liq ortiqcha ovoragarchilik, vaqt sarfi va inson omili ishtiroki sezilarli darajada kamayadi.

2026-yil 1-dekabrden boshlab platforma doirasida sun'iy intellekt texnologiyalari elementlaridan foydalanilgan holda muqobil skoring modeli joriy etilishi, shubhasiz, kichik va o'rta

biznes subyektlarining kredit olish imkoniyatini kengaytirish, kreditlash jarayonini tezkor, shaffof va adolatli tashkil etishga xizmat qiladi.

An'anaviy skoring asosan kredit tarixiga tayansa, muqobil skoring biznes faolligi, kommunal to'lovlar, aylanmalar, soliq va boshqa raqamli ma'lumotlarni ham hisobga oladi. Bu kredit tarixi mavjud bo'lmagan tadbirkorlarni ham baholash, ularga moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirishga turki beradi.

Kelgusida sun'iy intellekt asosida tadbirkorning kredit tarixini yaxshilash, kelgusidagi xatarlarni



baholash va biznesni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalarni shakllantirish imkoniyati yaratilishi tadbirkorlik muhitining yanada shaffof, qulay va samarali bo'lishiga xizmat qiladi.

Tijorat banklari tomonidan "AI maslahatchi" dasturining ishga tushirilishi, avvalo, tadbirkorlarga moliyaviy xizmatlardan tez va oson foydalanish imkonini beradi. Mazkur dastur orqali tadbirkor kredit olish shartlari, biznesini moliyalashtirish imkoniyatlari, to'lov grafiki, kredit yuki, moliyaviy xatarlar va biznesini rivojlantirish bo'yicha tezkor tavsiyalar olishi mumkin. Bu esa tadbirkorning bankka borib, ortiqcha vaqt sarflashini kamaytiradi hamda moliyaviy qarorlarni ongli va asosli qabul qilishga yordam beradi.

Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash dasturi doirasida ham qo'shimcha yengilliklar belgilanayotgani yana bir muhim yangilik bo'ldi. Ya'ni avval dastur doirasida mikroreditdan foydalanilgan va ijobiy kredit tarixiga ega tadbirkorlar uchun mikroreditning garovsiz qismi 100 million so'mdan 200 million so'mgacha oshirilishi tadbirkorlarga qo'shimcha garov talablarisiz ko'proq mablag' jalb etish, aylanma mablag'ini ko'paytirish, ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish hajmini kengaytirish hamda yangi ish o'rinlari ochish imkonini beradi.

Kredit yoki lizing miqdoridan qat'i nazar, uning 5 milliard so'mgacha bo'lgan qismi uchun foiz xarajatlari kompensatsiya qilinishi esa tadbirkorlarning moliyaviy yukini yengillashtirish, kredit va lizing mablag'laridan foydalanish imkoniyatini kengaytirishda qo'l keladi. Bu imtiyozlar tadbirkorlar uchun ishlab chiqarishni kengaytirish, zamonaviy uskunaga va texnologiyalar xarid qilish, aylanma mablag'ni ko'paytirishda juda muhim.

Har yili faoliyatini kengaytirgan va yuqori natija ko'rsatgan 100 ta tadbirkorlik subyektiga raqamlashtirish, xalqaro standartlar va "yashil" texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq xarajatlarga uchun 300 million so'mgacha grant ajratish taklifi ham ko'plab biznes vakillarining ayni dididagi gap bo'ldi. Zero, bu taklif yuqori natija ko'rsatayotgan tadbirkorlarni rag'batlantirish, ularning faoliyatini zamonaviy talablar asosida kengaytirish va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz tomonidan kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kengaytirish, raqamli moliyaviy platformani ishga tushirish hamda sun'iy intellektga asoslangan muqobil skoring tizimini joriy etish bo'yicha bildirilgan tashabbuslar mamlakatimizda tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilashga xizmat qiladigan muhim qadamdir. Zotan, mazkur mexanizmlar kredit tarixi mavjud bo'lmagan yoki garov imkoniyati cheklangan tadbirkorlar uchun ham moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirib, banklar o'rnatida sog'lom raqobatni kuchaytiradi, kredit ajratish jarayonida shaffoflik va tezkorlikni ta'minlaydi.

Bugun O'zbekiston biznesi yuritish uchun qulay mamlakatga aylanib bormoqda. Shubhasiz, yurtimizda tadbirkorlarga yanada qulayliklar yaratiladi, ularning erkin va samarali faoliyat yuritishi uchun barcha imkoniyatlar to'liq safarbar etiladi. Bu o'z navbatida, alohida bandligini ta'minlash, tadbirkorlikning kel qulay yoyishi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni kengaytirish hamda yangi ish o'rinlari ochish imkoniyatini yaratishda juda muhim.

Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan ustuvor vazifalar biz, deputatlar zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi. Xalq vakili sifatida ularning ijrosi o'z vaqtida va samarali ta'minlanishi ustidan ta'sirchan parlament va deputatlik nazoratini o'rnatishimiz lozim.



Boshlanishi 1-betda

Mamlakatimiz yetakchisining jiddiy tahlili Surxondaryo viloyatidagi mahalliy hokimliklarni ham yangicha ishlash, barcha sohada innovatsion tizimlarni joriy qilishga undamoqda. Shu o'rinda Angor tumanida joriy yilning birinchi choragi yakunlari bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish borasidagi ko'rsatkichlarga e'tibor bersak. O'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 105,3 foiz, pudrat ishlari 105,4 foiz, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish 106,1 foiz, xizmat ko'rsatish hajmi 120,6 foiz o'sgan.

So'nggi yillarda Angorda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va eksport qilish

## Kambag'allikdan farovonlik sari O'ZGARISHLAR MEZONI: MEHNAT, TASHABBUS VA NATIJA

bo'yicha o'ziga xos maktab yaratildi. Xususan, Ilg'or va Bahoriston mahallalarida boshlangan tajriba bugun tumanning barcha hududida ommalashirilmoqda. Angorda yetishtirilgan karamning ta'mini yaqin-yiroqda hamma yaxshi biladi. Joriy yil tumandagi 334 gektar maydonga kartoshka ekildi. Bu hali ichki talabni qondirish uchun yetarli emasdir, ammo tadbirkorlarning bu boradagi izlanishlari qisqa muddatda kartoshkachilikka ham Angor tajribasi shakllanishiga zamin yaratishga shubha yo'q.

Tez kunlarda tumanda 12 ta yangi sanoat korxonasi ishga tushadi. Bu ham Angorning yildan yilga agrar hududidan sanoatlashgan manziliga aylanib borayotganidan dalolat. Mazkur yangilanishlar mamlakatimizda ishlab chiqaruvchi va mahsulot eksport qiladigan tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash uchun berilayotgan imtiyoz va imkoniyatlar samarasidir. Ushbu ishlar tufayli shu yilning birinchi choragida tumanda 5682 ta yangi ish o'rni ochildi. Bu orqali minglab oilalarga baraka kirib, iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyati kengaydi.

Prezidentimiz videoselektor yig'ilishida barcha darajadagi mas'ullar oldiga qo'yilgan vazifalardan asosiy maqsad xalqimiz turmush sharoitini yaxshilash, hayotdan rozi bo'lib yashashga sharoit yaratib berish ekanini ta'kidlagan edi. Aholining birlamchi ehtiyojlarini ta'minlash Angorda ham asosiy vazifaga aylanib ulgurgan. Jumladan, tumandagi 19 ta mahallaning infratuzilmasini yaxshilash borasidagi ishlar izchil davom ettirilayпти. Dastur doirasida yil boshidan buyon 35 kilometr ichki yo'l ta'mirlanib, 22 ta aholi punktida ichimlik suv ta'minoti yaxshilandi. Elektr ta'minoti me'yorida bo'lishini ta'minlash maqsadida 35 kilometr tarmoq tortilib, 17 ta transformator punkti yangilandi.

— Angor tumanida iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida sanoat va tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda, — deydi "Chinobod" MFY raisi Gulorom Mamatova. — Yangi ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etilib, kichik biznesga qulay sharoit yaratilmoqda. Shu orqali yangi ish o'rinlari ochilib, aholi barqaror daromadga ega bo'layпти.

Tahlilni viloyatning eng kichik va chekka tumanlaridan birida yashovchi bandixonliklar hayotidagi real o'zgarishlar, kambag'allikni qisqartirish borasidagi yangi tizim misolida davom ettirsaq.

Bandixon tumanida ham aholi bandligini ta'minlash, iqtisodiy o'sish sur'atini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqildi. Tumanda joriy yilning birinchi choragida asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda o'tgan yilga nisbatan o'sish kuzatildi. Xususan, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish qiymati 109 milliard so'mga yetib, o'sish sur'ati 124 foizni tashkil etdi. Qurilish ishlari hajmi esa 25,2 milliard so'm, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish esa 102 milliard so'mdan oshdi. Shuningdek, xorijdan 27,3 million dollar sarmoya o'zlashtirildi.

Tumandagi Saroy mahallasi aholining asosiy daromad manbai — dehqonchilik. Mahallada kartoshkachilik drayver yo'nalishga aylangan. Huddud aholi bir mavsumda o'rtao'rta 2600 so'm atrofida daromad topmoqda.

Bandixon aholini sifati va arzon oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, narx-navo barqarorligini saqlash borasida aniq chora-tadbirlar ko'rilayпти. Hozir Bektepa mahallasida joylashgan 1 gektarli issiqxonada bulg'or qalampiri yetishtirilmoqda.

— Dastlab besh sotikli issiqxonada ikki ishchi bilan ish boshlagan edik. Ikki-uch yilda issiqxonamiz bir gektarga kengayib, doimiy ishchilar soni 10 dan oshdi. Hozir issiqxonada yetishtirilgan mahsulotlar nafaqat tuman aholisiga, balki qo'shni viloyatlarga ham yetkazib berilmoqda, — deydi tadbirkor Hasan Normurodov.

Tumandagi yana bir yirik korxonada kalava ip ishlab chiqariladi. U 2024-yilda 9 million dollar investitsiya kiritish evaziga Turkiya texnologiyalari asosida ishga tushirilgan edi. Natijada 50 kishi ishli bo'ldi.

Prezidentimiz topshiriqlaridan kelib chiqib, joriy yilda Bandixon bandlek dasturlari doirasida yangi ish o'rinlari ochish reja qilingan. Bu orqali 11 ming 300 kishining bandligi ta'minlanadi. Shu tariqa ishsizlik darajasi 4 foizga tushirildi. Birinchi chorak yakunlari bilan hududda 2600 yurtdoshimiz ish bilan band qilindi.

Muzrabot tumanida ham hududning iqtisodiy o'sishini ta'minlash va qo'llab-quvvatlashda davlat resurslari muhim o'rin tutmoqda. Hududda 2026-yilning birinchi choragi yakunida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 194,5, pudrat ishlari 80,3 va qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi 371,2 milliard so'mga o'sgan.

Yashirin iqtisodiy taraqqiyotga salbiy ta'sir qilishi sir emas. Shu bois, tumanda yashirin iqtisodiyot va inflyatsiya ko'rsatkichi ortishining oldini olish borasida aniq vazifalar belgilab olindi.

— Tumanimizda yashirin iqtisodiyotni jilovlash bo'yicha tizimli chora-tadbirlar ko'rilmoqda, — deydi Muzrabot tumani soliq inspeksiyasi boshlig'i o'rinbosari Akmal Numamatov. — Mazkur yo'nalishdagi tahlillar natijasida 81,8 milliard so'mlik yashirin aylanma va qo'shimcha daromad tadbirkorlar tomonidan 15,9 milliard so'mlik hisobotlar qayta topshirilib, joriy yilning birinchi choragida byudjetga 12 milliard 364 million so'm undirildi.

Muzrabot tumanida birinchi chorakda 194,5 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Ikkinchi chorak uchun yanada baland marra olib, 559,6 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish reja qilingan.

Shuningdek, tumanda narx-navo barqarorligini saqlash, aholini meva-sabzavot bilan ta'minlash borasida ham muayyan ishlar bajarildi. Jumladan, 1955 gektar yer 5038 ta lot orqali 3187 ta dehqon xo'jaligiga ajratib berildi. Shuningdek, Obod tumsh mahallasi hududida "Biznes logistik" tadbirkorlik subyekti 200 gektar yerga poliz ekini ekan.

— Hozir dalada qovunning 3 xil serhosil navini yetishtiryapmiz. Yaqinda mahsulot eksporti boshlanadi. Har gektardan 20 tonnagacha mahsulot olish mo'ljal qilingan. Shu hisobda hosildorlik 4000 tonnani tashkil qiladi. Shundan faqat 5 tonnasi ichki bozorga, qolgan xoriyga sotiladi. Bundan tashqari, har gektardan chorva uchun 28 tonna ozuqabop mahsulot ham tayyorlayapmiz, — deydi "Biznes logistik" mas'uliyati cheklangan jamiyatining Muzrabot tumanidagi ish boshqaruvchisi Nodir Toshboev.

Tumanda joriy yil birinchi choragida 26,5 million dollarlik to'g'ridan to'g'ri xoriy investitsiya o'zlashtirildi. Shuningdek, 2,4 million dollarlik meva-sabzavot eksport qilingan.

Huddud aholisini go'sht va go'sht mahsulotlari bilan ta'minlashda Duoba mahallasidagi parrandachilik korxonasining alohida o'rni bor. Kelgusida tadbirkor baliqchilik yo'nalishini ham yo'lga qo'yish va mahsulotlarni saqlash uchun muzlatkichi ombor qurishini reja qilgan. Bu esa yanagi ish o'rinlari ochilib, iqtisodiy barqarorlikka munosib hissa qo'shiladi, degani.

Gap odamlarni ishli qilish haqida ketarkan, bu borada tumandagi yilning dastlabki uch oyida erishilgan yutuqlar haqida ham to'xtalish kerak. Ma'lumotlarga ko'ra, ushbu davrda tumanda 5616 ta ish o'rni ochildi. Bundan 663 tasi doimiy, 4522 tasi esa mavsumiy. Ularidan tashqari, legallashtirish hisobiga 431 ta yangi ish o'rni tashkil etilgan. Umuman olganda, aholini kasb-hunarga o'qitib, ishli qilish kabi ishlar tufayli farovonlik ta'minlanayпти.

Mahallalar infratuzilmasini yaxshilash borasidagi ishlar ham muzrabotliklar qovushigacha sabab bo'layпти. Jumladan, birinchi chorakda 19 ta mahallada 191 kilometr ichki yo'l ta'mirlandi. Madaniyat, Darband va Fidokor mahallalari ichimlik suv bilan ta'minlandi. Shuningdek, 14 ta maktabgacha ta'lim tashkilotining holati yaxshilandi. Uchta mahallada tomorqani sug'orish tizimi qayta tiklanib, yuqori kuchlanishli elektr tarmog'i tortildi.

Bu boradagi ishlar izchil davom etmoqda. Xususan, hozir 15 ta mahallada bunyodkorlik ishlari bajarilmoqda. Shuningdek, "Qishloq joylarni kompleks rivojlantirish" dasturining ikkinchi bosqichi bo'yicha Muzrabotdagi 13 ta ijtimoiy soha obyektida 24 milliard so'mlik qurilish-ta'mirlash ishlari bajariladi.

Davlatimiz rahbari o'tkazgan videoselektor yig'ilishidan so'ng Surxondaryo viloyatida ham iqtisodiy o'sishni ta'minlash bo'yicha zarur choralar belgilab olingan. Hozir bu sa'y-harakatlar hududlar rivoji, kambag'allikni qisqartirishda qo'l kelmoqda.

Sarvar TO'RAYEV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



Nuqtayi nazar



Hayot QODIROV, Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti direktori



# KASBIY TA'LIM

## Taraqqiyotimizning inson kapitaliga tayangan kuchi

Boshlanishi 1-betda

Shu ma'noda, kasbiy ta'lim bugun oddiy ijtimoiy soha emas, balki mamlakat iqtisodiy siyosatining amaliy tayanch nuqtasiga aylanmoqda. Texnikumlarda tayyorlanayotgan har bir malakali mutaxassis korxonaga kirib boradigan ishchi kuchigina emas, balki mahsulot sifati, xizmat madaniyati, ishlab chiqarish intizomi va hududiy iqtisodiyotning barqaror o'sishiga ta'sir ko'rsatadigan inson kapitali demakdir.

Keyingi yillarda mamlakatimizda kasbiy ta'limga alohida e'tibor qaratilayotgani ham bejiz emas. Rivojlangan davlatlar tajribasi raqobatbardosh iqtisodiyot, avvalo, raqobatbardosh kadrlar boshlanishini ko'rsatadi. Kadr esa nazariy bilimdan tashqari amaliyotda sinovdan o'tgan ko'nikma, kasbiy mas'uliyat va natijaga yo'naltirilgan tayyorlik bilan shakllanadi.

### Islohotlar markazida — mehnat bozori talabi

Davlatimiz rahbarining 2025-yil 23-oktabrdagi "Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori soha rivojini yangi bosqichga olib chiqdi. Unda kasbiy ta'limni ommalashtirish, o'qitish mazmuni va sifati oshirish, dual ta'limni rivojlantirish, hududlarda ilg'or kasbiy mahorat texnikumlarini tashkil etish, sifati ta'minlash va moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilab berildi.

Shu bilan birga, Prezidentimizning ushbu sanadagi "Kasbiy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida kasbiy ta'lim va kasbga o'qitishni yagona yondashuv asosida boshqarish, ilg'or xorijiy tajribalarni samarali joriy etish hamda xalqaro standartlarga mos, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash asosiy maqsad sifatida belgilangan. Mazkur hujjatlar kasbiy ta'limdagi o'zgarishlar faqat shakliy yangilanish emas, balki

boshqaruv, mazmun, sifat, moliyalashtirish va mehnat bozori bilan integratsiyani bir butun tizim sifatida qayta ko'rishga qaratilganini ko'rsatadi.

Eng muhimi, endi kasbiy ta'lim muassasasi mehnat bozorida ajralgan holda faoliyat yuritishi mumkin emas. Har bir dastur, har bir o'quv moduli, har bir amaliyot mashg'uloti "bu ko'nikma bitiruvchiga ish joyida kerakmi?" degan savolga aniq javob berishi lozim. Agar ta'lim mazmuni korxonaga ehtiyojidan ortda qolsa, diplom bor, ammo ishga tayyorlik yetarli emas degan muammoni yuzaga keltiradi. Shuning uchun kasbiy ta'limning asosiy mezonini bitiruvchining ishga tayyorligi, ish beruvchining ishonchi va mehnat bozorida natijasi bo'lishi shart.

### Mahsuldorlikni oshirish zaruriyati

Bu borada davlatimiz rahbarining joriy yil aprelda Farg'ona viloyatiga tashrif davomida bildirgan fikrlari kasbiy ta'lim tizimi uchun ham muhim siyosiy va amaliy signal bo'ldi. Prezidentimizning "Farg'ona ahli bizdan yanada katta natija kutayapti" degan so'zlar faqat bir hududga berilgan baho emas. Bu har bir sohada, jumladan, kasbiy ta'limda ham natijadorlik, tezkorlik va mas'uliyatni oshirish zarurligini anglatadigan qat'iy talabdir.

Farg'ona aeroportini rivojlantirish jarayonida davlatimiz rahbari aeroport har qanday hududning darvozasi ekanini ta'kidladi. Shu fikrni kasbiy ta'limga nisbatan ham qo'llash mumkin: texnikumlar — hudud iqtisodiyotining malakali mehnatga ochiladigan darvozasi. Agar bu darvoza zamonaviy bilim, ishlab chiqarish bilan bog'langan amaliyot va raqobatbardosh ko'nikmaga ochildi, hududda sanoat ham, xizmat ko'rsatish ham, tadbirkorlik ham tezroq rivojlanadi.

Demak, kasbiy ta'limdagi har bir islohot qog'ozdagi reja yoki hisobot bo'lib qolmaydi. U hududda yangi ish o'mi, korxonada sifati mahsulot, yoshlar hayotida barqaror daromad va jamiyatda qadr topgan kasbni shakllantirish uchun xizmat qilishi kerak.



### Quruq hisobotdan amaliy samaradorlikka

Kasbiy ta'limdagi eng muhim o'zgarishlardan biri dual ta'limni kengaytirish bilan bog'liq. Uning mazmuni oddiy, ammo ta'siri katta: o'quvchi nazariy bilimni ta'lim muassasasida, kasbiy ko'nikmani esa ishlab chiqarish muhitida egallaydi. Natijada bitiruvchi korxonaga u yerdagi muhit, texnika xavfsizligi, ish tartibi, uskunalar bilan ishlash madaniyati va jamoaviy mas'uliyatini o'z ichiga olib boradi.

Shu bois, dual ta'limni faqat shartnoma tuzish yoki amaliyotga yuborish bilan cheklab bo'lmaydi. U uch tomon — ta'lim muassasasi, ish beruvchi va o'quvchi uchun aniq majburiyatlar bo'lishi kerak. Ta'lim muassasasi dastur va metodikani ta'minlaydi, korxonada real ish muhitiga olib kiradi, o'quvchi esa kasbiy natijaga erishish uchun zimmasiga mas'uliyat oladi. Ana shunda dual ta'lim qog'ozdagi hamkorlik emas, amaldagi kadr tayyorlash mexanizmi aylanadi.

### Xalqaro dasturlar va milliy ehtiyoj uyg'unligi

Bugun kasbiy ta'limni rivojlantirishda xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etish, kasbiy standartlarga

asoslangan modulli dasturlarni ishlab chiqish va o'quvchilarni xalqaro mehnat bozori talablariga yaqinlashtirish muhim.

Biroq xalqaro tajribani joriy etish uni tayyor holda ko'chirish degani emas. Har qanday dastur milliy iqtisodiyot ehtiyoji, hududlar ixtisoslashuvi, mahalliy korxonalar talabi va o'quvchilarning real imkoniyatlari bilan uyg'unlashtirilganda natija beradi. Shuning uchun kasbiy ta'limda "xalqaro standart — milliy amaliyot — ish beruvchi talabi" zanjiri shakllanishi zarur.

Kasbiy ta'limda eng zamonaviy dastur, eng yaxshi jihoz va eng mukammal qaror ham o'qituvchi hamda ishlab chiqarish ta'limi ustasi salohiyatidagi kutilgan natijani bermaydi. Shuning uchun sohadagi islohotlar markazida pedagog kadrlar malakasini oshirish, ularni ishlab chiqarish bilan yaqinlashtirish va metodik ta'minotni kuchaytirish turishi lozim.

Buning uchun pedagoglarning malaka oshirish kurslari ham zamon talabiga mos bo'lishi shart. Malaka oshirish nazariy ma'ruzalar bilan cheklanmay, korxonalarda stajirovka, zamonaviy uskunalar bilan ishlab, raqamli simulyatorlar, baholash vositalari va amaliy keyslar asosida tashkil etilishi zarur. Chunki amaliyotni ko'rmagan pedagog o'quvchini amaliyotga tayyorlashda qiynaladi.

### Tizim oldidagi aniq vazifalar

Islohotlar keng ko'lami bo'lishiga qaramay, tizim oldida hal qilinishi zarur bo'lgan vazifalar ham mavjud. Birinchidan, ayrim texnikumlarda moddiy-texnik baza hali barcha yo'nalish bo'yicha zamonaviy talabga to'liq javob bermaydi.

Ikkinchidan, ta'lim dasturlarini yangilash sur'ati mehnat bozorida o'zgarishlar sur'ati bilan har doim ham uyg'un emas.

Uchinchidan, ish beruvchilarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki hududlar kesimida turlicha.

To'rtinchidan, bitiruvchilarning ishga joylashishi, kasbiy ta'limni hamda ish beruvchi tomonidan baholanishini muntazam tahlil qiladigan raqamli monitoring tizimini yanada kuchaytirish zarur.

Kasbiy ta'limning nufuzini oshirish ham jamiyat tafakkuri bilan bog'liq. Ayrim otanalar va yoshlar kasbiy ta'limni hali ham oliy ta'limga nisbatan ikkinchi darajali yo'l sifatida qabul qiladi. Vaholanki, zamonaviy iqtisodiyotda yaxshi elektromontyor, mexatronik, payvandchi, avtomobillarga xizmat ko'rsatish mutaxassisi, dasturlashga ixtisoslashgan texnik, agrotexnolog yoki mehmonxona servis xodimi ham mamlakat rivoji uchun strategik ahamiyatga ega.

### Natijaviy malakani shakllantirayotgan metodik markaz

Mazkur qarorda belgilangan vazifalar ijrosi doirasida Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti tomonidan kasbiy ta'lim mazmunini xalqaro standartlar, xorijiy tajriba va milliy mehnat

bozori talablari asosida tubdan yangilashga qaratilgan tizimli ishlar bajarilmoqda. Xususan, iqtisodiyot tarmoqlarida talab yuqori bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha 60 ta ta'lim dasturi xorijiy tajriba asosida to'liq qayta ishlandi. Ushbu dasturlarda faqat nazariy bilimlarni berish emas, balki o'quvchilarda aniq kasbiy kompetensiyalar, ish joyida zarur bo'ladigan amaliy ko'nikmalar, texnologik jarayonlarni tushunish, zamonaviy uskunalar bilan ishlash madaniyati hamda ish beruvchi talab qiladigan natijaviy malakani shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi. Eng muhimi, mazkur dasturlar xalqaro institutlar va tashkilotlar ishtirokida ekspertizadan o'tkazilib, ularning mazmuni xalqaro ta'lim standartlari, ishlab chiqarish ehtiyojlari va milliy kasbiy standartlar bilan uyg'unlashtirildi.

Bu jarayonda institut kasbiy ta'lim tizimiga ilg'or xalqaro yondashuvlarni olib kiruvchi, ularni mahalliy sharoitga moslashtiruvchi va amaliyotga tatbiq etishni tashkil etuvchi metodik markaz sifatida maydonga chiqmoqda. Ta'lim dasturlarini takomillashtirishga xorijlik ikki mutaxassis maslahatchi sifatida jalb etildi. Ularning tavsiyalari asosida modullar mazmuni, o'qitish natijalari, baholash mezonlari va amaliyot bilan bog'liq topshiriqlar qayta ko'rib chiqildi. Shu bilan birga, xalqaro loyihalarni kasbiy ta'lim tizimiga jalb etish, texnikumlarda zamonaviy o'qitish muhitini shakllantirish, pedagog va ishlab chiqarish ta'limi ustalari salohiyatini oshirish, shuningdek, xalqaro hamkorlik bilan amaliy aloqalarni kengaytirish ishlari jadallashtirilmoqda. Bunday yondashuv kasbiy ta'limni hujjatlarda belgilangan vazifalar darajasida emas, balki real natija — yangilangan dastur, zamonaviy metodika, kuchli pedagog, ish beruvchiga tayyor bitiruvchi va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash tizimi sifatida namoyon etishga xizmat qiladi.

Shu ma'noda, institutimizda qilinayotgan ishlar kasbiy ta'limda "xalqaro tajriba — milliy dastur — amaliy ko'nikma — ish beruvchi ehtiyoji — mehnat bozori natijasi" zanjirini shakllantirishga qaratilgan.

### Taraqqiyotga kirish eshigi

Bugun kasbiy ta'limga munosabati tubdan o'zgartirish vaqti keldi. Texnikum "oliy ta'lim muassasasiga kira olmaganlar joyi" emas, balki iqtisodiyotga eng zarur mutaxassislarni tayyorlanadigan zamonaviy ta'lim maydonidir. U yerda shakllangan har bir kasbiy ko'nikma erdagi korxonada mahsulotga, xizmat ko'rsatishda sifatga, hududda bandlikka, oilada daromadga aylanadi.

Davlatimiz rahbarining katta natija haqidagi talabi kasbiy ta'lim tizimi uchun ham eng muhim mezon bo'lib qolmog'i lozim. Kasbiy ta'limda katta natija zamonaviy o'quv dasturi, malakali pedagog, ish beruvchi bilan haqiqiy hamkorlik, ishga tayyor bitiruvchi va jamiyatda qadr topgan kasb demakdir.

Ana shu maqsadga izchil erishilsa, kasbiy ta'lim yangi O'zbekiston taraqqiyotining eng ishonchli inson kapitali maktabiga, hududlar iqtisodiyotining barqaror o'sish manbaiga va yoshlar kelajagini amaliy natija bilan bog'laydigan qudratli tizimga aylanadi.

# KELAJAK TRANSFORMATSIYASI

## BILIM VA TEXNOLOGIYALAR KREATIV KADRLARNI SHAKLLANTIRISHGA XIZMAT QILMOQDA

Navbahorlik Bobur Asadullayev tumandagi 2-texnikumda kompyuter grafikasi va dizayn operatori yo'nalishi bo'yicha o'qiyapti. Hozir u ta'lim maskanidagi sharoitdan unumli foydalanib, saytlar yaratmoqda. Shuningdek, qurilish sohasida ham xizmat ko'rsatib, uylar loyihasi va dizayni ustida ishlayapti.



Ushbu texnikumda Bobur kabi bilim olib, kasb o'rganayotgan yoshlar talaygina. Bu yurtimizda professional ta'lim sohasini rivojlantirish, yoshlarni zamonaviy kasb-hunarlariga o'qitish borasidagi islohotlar samarasi. Navqiron avlodni mehnat bozori talablariga mos kadrlar etib tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Hozir "Bir yoshga — bir kasb" tamoyili asosida amaliy ko'nikmalarga ega, mustaqil fikrlaydigan, zamon bilan hammasi mutaxassislarni tayyorlashga katta e'tibor berilyapti. Xususan, hududlardagi texnikum va kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatini tubdan yangilayapti. O'quv binolari rekonstruksiya qilinib, zamonaviy laboratoriya va ustaxonalar tashkil etilmoqda. Ta'lim dasturlari esa iqtisodiyot ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda qayta shakllantirilmoqda. Muhimi, nazariya bilan amaliyot uyg'unlashtirish, o'quvchilarning korxonaga va tashkilotlarda ishlab, tajriba oshirayapti.

Navbahor tumandagi 2-texnikum ham shu kabi zamonaviy ta'lim muassasalaridan. Hozir unda 720 o'quvchi 14 kasb va mutaxassislik bo'yicha tahsil olyapti. Jumladan, avtomobil ta'miri, traktorchi-mashinist, kimyoviy texnologiya, elektromontyorlik, payvandlash, to'kari, mashinasozlik, veterinariya, kompyuter grafikasi kabi istiqbolli yo'nalishlar bo'yicha kadrlar tayyorlanadi.

O'quvchilarning 7 kasb va mutaxassislik bo'yicha dual ta'lim tizimida tahsil olyapti, — deydi texnikum direktori o'rinbosari Fazliddin Qutliyev. — Bu yerda olgan nazariy bilimlarini haftada uch kun sanoat korxonalarida ishlab mustahkamlaydi. Mazkur tizim samara bermayotadi. O'quvchilarning mutaxassisligi bo'yicha yutuqlarga erishyapti. Jumladan, Asliddin Haydarov avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha Andijonda o'tkazilgan tanlovda 1-o'rinni egallab, Xitoyning Shanxay shahrida bo'lib

o'tadigan musobaqaga yo'llanmani qo'lga kiritdi. Har bir kasb bo'yicha o'quvchilarning zarur sharoit yaratilgan, jihozlarning yangilangan, malakali ustozlar dars o'tmoqda.

Ta'lim maskanidagi talabgir yo'nalishlardan biri tikuvchilik. Yengil sanoat jadal rivojlanayotgan bir pallada malakali tikuvchilarga ehtiyoj tobora kuchaymoqda. Shu bois, ushbu yo'nalishda tahsil olayotgan qizlar uchun amaliyot xonasi ajratilgan. Qolaversa, ular zamonaviy tikuv mashinalari va zarur uskunalar bilan ta'minlangan. O'quvchilar mato tanlashdan tortib, zamonaviy dizayndagi liboslar tikishgacha bo'lgan barcha jarayonni puxta o'zlashtirmoqda. Muhimi, yoshlar kasb o'rganib, tadbirkorlikni yo'lga qo'yish imkoniyatiga ham ega bo'lmoqda.

Tikuvchilik yo'nalishida o'qiyotgan Diana Qo'ldoshboyeva intiluvchanligi, chevarligi bilan ustozlari e'tirofiga sazovor bo'lgan. U qisqa muddatda zamonaviy tikuv mashinalarida erkin ishlab, turli liboslar tikishni mukammal o'zlashtirdi. Hunari sabab daromad topyapti.

Hozir tikuvchilik faqat chokni chiroyli va sifati chiqarishdangina iborat emas, balki dizaynerlik, brend yaratish, onlayn savdo orqali mahsulot sotish kabi talablar mavjud. Texnikumda bu borada ham zarur ko'nikmalarni berib boriladi. Zero, tikuvchilikni puxta o'rganganlar ish o'mi o'chadigan kadrlar bo'lishi lozim. Ana shunday mohir chevarlardan biri Nilufar Asadova. U kelgusida ushbu yo'nalishda shaxsiy biznesini yo'lga qo'ymoqchi.

— Texnikumda uchta tikuvchilik guruhi bor. Ularning har birida yigirman o'rtiq o'quvchi kasb o'rganayapti, — deydi texnikum o'qituvchisi Anorxon Qozoqova. — Ikki yilda ular mohir chevar bo'lib, mustaqil faoliyatini yo'lga qo'yadi. Tumandagi eng yirik tekstil korxonalarini bilan shartnoma tuzganmiz. O'quvchilarning amaliyot davrida ham mehnatiga yarasha maosh



to'lanmoqda. Xonalarimiz zamonaviy tikuv vositalari bilan ta'minlangan. O'quv jarayonida korxonalaridagi kabi zamonaviy jihozlardan foydalaniladi. Bu ishlab chiqarish amaliyotida o'quvchilarning katta ko'mak beradi. Ular oliyog'unda o'qishni davom ettirsa ham o'rganagan hunari doim aqshatishi shubhasiz. Oldiga katta maqsad qo'yib, kelgusida korxonaga ochmoqchi bo'lgan o'quvchilarning ham bor.

Prezidentimizning 2024-yil 16-oktabrdagi farmoniga muvofiq, Navbahor tumandagi 2-texnikum xalqaro ta'lim dasturlari, xususan, Buyuk Britaniyaning Pearson Education tizimi va Germaniyaning dual ta'lim modelini joriy etish bo'yicha tanlab olingan. O'tgan o'quv yilida texnikumda 4 mutaxassislik bo'yicha 121 o'quvchi xalqaro ta'lim shaklida o'qiy boshladi.



## Zamon bilan hamnafas



sharoitlar tufayli o'quvchilarning dasturlash, veb-sayt yaratish, raqamli dizayn kabi sohalarni o'zlashtirmoqda. Yoshlar orasida hozirdanoq sayt yaratib, onlayn savdoni yo'lga qo'yayotganlar ham bor. Jumladan, o'quvchimiz Bobur Asadullayev axborot texnologiyalari sohasida ilk yutuqlarini qo'lga kiritdi.

Texnikumdagi har bir yo'nalish uchun maxsus sinfxona, laboratoriyalar mavjud. Ular zarur o'quv jihozlari bilan ta'minlangan. Ta'lim muassasasida muntazam "Ochiq eshiklar kuni" o'tkazib boriladi. Tumandagi 9-11-sinf o'quvchilari texnikumdagi o'quv jarayoni, zamonaviy jihozlardan ustaxonalar, laboratoriyalar bilan tanishadi. Texnikum o'quvchilarning amaliy ishlari haqida atroflicha ma'lumotga ega bo'ladi.

— U yerda yoshlarni kasb-hunarga jalb qilish bo'yicha ham tizimli ishlar qilingan, — deydi Gulbahor Qodirova. — Jumladan, "Ochiq eshiklar kuni" tadbirlarida Pearson Education xalqaro ta'lim yo'nalishining imkoniyatlarini batafsil tushuntiramiz. Bu yil nafaqat tumanimiz, balki boshqa hududlardan kelgan yoshlarni ham o'qitishni maqsad qilganmiz. Buning uchun joriy yilda qabul kvotasi 350 ta etib belgilangan. Qabul jarayoni 15-iyundan 1-avgustgacha davom etadi. Maktab imtihonlari tugagach, o'quvchilar onlayn platforma orqali hujjat topshiradi. Keyin Pearson Education xalqaro ta'lim yo'nalishi saralash bosqichidan o'tgan o'quvchi texnikumga qabul qilinadi. O'qish muddati 2-yil. Shu muddatda o'quvchilar kasb bilan birga aniq fanlar bo'yicha ham ta'lim oladi.

Zamonaviy hayotni elektr energiyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ishlab chiqarish korxonalarini, uy-joylar, muassasalar, axborot tizimlari — barchasi uzluksiz elektr ta'minotiga bog'liq. Shu bois, bu sohada bilim va mas'uliyatli kadrlarga doim ehtiyoj bor. Texnikumda mazkur soha uchun ham malakali kadrlar tayyorlanmoqda.

G'olib ABDUSALOMOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



Mulohaza

O'zbekiston xalq shoiri, ustoz Usmon Azimning "Riyosiz so'zlar" maqolasi juda katta shov-shuv bo'ldi. Ko'pchilik maqolani o'qidi, fikr bildirdi. Nazarimda, buning bir necha omillari bor. Birinchidan, so'z Usmon Azimniki edi. So'zi qadrlin...



Akrom MALIK, Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti ilmiy xodimi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Usmon Azimning, yetmish olti yoshga kirgan va umri davomida biror mara o'zi haq bilan so'zdan boshqasini aytmagani, biror mara tama va lagabardorlik sohasiga yaqin kelmagani zabardast shoirning bu bitiklaridan so'ng inson o'zi ko'rgan yaxshiliklarini aytishi kerak ekan, hatto bu o'sha odamning o'zi uchun zarur, vijdoni oldidagi mas'uliyati dod-faryod chekib yoki yutuqlardan...

Boshlanishi 1-betda

Oltmish yildan ziyod tarixga ega suv ombori 180 million kubometr suvni jamlay oladi. U hamisha toza havo esadigan qiradirlar o'rtasida joylashgani sababli turizm rivoji uchun juda qulay. Ayni jihatlarini inobatga olib, turizmni jahon andozalari darajasida rivojlantirishga qaratilgan 200 ga yaqin istiqbolli loyiha ishga tushirildi. "Karkidon" hududida yangi ekoturizm majmuasi barpo etilganidan buyon bu yerga uzoq-yaqindan kelayotgan sayohatchilar, mehmonu mezboblarning qadami uzilgan emas. Majmua katta sayyohlik, dam oluvchilar maskaniga aylani b ketdi. Uning bugungi ko'rku jamoli sari oshiqayotganlar karvoni bir dam bo'lsa-da to'xtangani yo'q. Odamlar xalq farovonligi yo'lidagi imkoniyatlardan bahra olmoqda.

"Karkidon" suv ombori haqida avval ham eshitganmiz. Lekin sayohat qilib, maroqli hordiq chiqarishga shart-sharoit bo'lmaganidan bu yerlarga kelish istagi tug'ilmagani, — deydi Zoyzovon tumani "Toshhovuz" mahalla fuqarolar yig'inidan sayohatga kelgan Jahongir Abdurahimov. — Qisqa muddatda butun manzara o'zgarib ketibdi. Yangi yo'l va yo'laklar, yashil maydonlarni ko'rib, bahri dilimiz ochildi. Avvallari ko'rmagan shale, zamonaviy mehmon uylari xorijdagi dam olish maskanlaridan aslo qolishmaydi. Bu yerga onam, farzandlarim bilan kelganmiz. Kun davomida suv ombori havzasidagi maxsus qayiqlarda sayr qilib, shinan uylarda hordiq chiqardik. Endi bir olam taassurot bilan qatnayapmiz. Hammasi go'zal, betakror.

Haq gap. Suv ombori ayni kunda vodiyliklarning yozgi dam olish va ekoturizm uchun eng jozibador manzillaridan. Hudud salohiyatidan samarali foydalanib, avval yaydoq dala bo'lgan manzil bugun turistik xabga aylandi. Hududda qiymati 635

Dunyo sahnasi tinch emas. Shunday murakkab pallada Prezidentimizning oqilona, jasoratli va donishmandona qarashlari, yondashuvlari bilan O'zbekiston mavqeini saqlab, hatto yanada yuqori darajaga ko'tarilmoqda.



ERKIN RUHNING QAYTISHI

sevinib ketmaydi, balki to'g'ri yashash, haqiqat va adolat, shafqat va rahmat tarafida turishga intiladi. Musibat va baxtiyorlik asiri bo'lmay, o'zligini, ko'ngil pokligini saqlab qolish, insoniylikni boy bermaslik, to'g'ri yashash rosmi g'alabadir.

2011-2015-yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining o'zbek filologiyasi fakultetida tahsil oldim. Talabalikning ilk yili 21 yoshni to'ldirgan edim. Bu — hali dunyoqarash butkul shakllanmagan, lekin ruh va qalb o'zi uchun tafakkur va ma'no olamidan maqom va makon istaydigan davr. Ko'zimga olam qorong'i ko'rinadi. Chunki hammaning yuzida mung bor edi. Odamlar ochilib gaplashmas, ularni og'ir yuk ezib, yelkasini bukib tashtagandek edi.

Men — yosh, qalam va so'zga oshufta, har xil kitoblarni qalashitirib o'qiydigan yigit vaziyatni to'liq tushunish, baholash va o'zimizni qanday tutsam, to'g'ri bo'lishini aniqlashga urinaman. Nazarimda, hamma o'zi bilan o'zi ovora; odamlar kuni o'tishi uchuniga ishga kelib ketayotgandek. Jo'shqinlik va umid yo'qdek tuyulgan davrda ruhiyatimda og'ir mahzunlik va yuk bor edi go'yo. Men izlagan manzil Vatanda emas edi; men izlagan baxt Vatanda topilmaydi; men istagan hurriyat va erkinlik yurtdan qovulgan; hur va xotirjam yashashim uchun Vatanim boshqa bir shaklda bo'lishi kerak edi, nazarimda. Shu sababli xayolotning turli eshiklariga, tasavvurning turli derazalariga boshimni urib ko'raman.

Shunda to'g'ri yo'lni, najot yo'lini chetdan — tashqaridan izlay boshladim. Shunday qilsam, xalqim va Vatanimga eng katta xizmat qilgan bo'lgan deb o'ylardim. Aqlimga ham, qalbiga ham bu ish xato bo'lib tuyulmasdi. Chunki aql adashsa, qalb buzilsa, o'zidan boshqani haq deya qabul qilmaydi, o'zini tahill ham etmaydi. Bu xato qaror va xato ishning oxiri qo'lga kishan urilib, panjara ortiga tushish bilan yakunlandi. U tomonlarning manzarasi nechog'liq ayanchli bo'lgani bugun hammaga ravshan. Bu haqda o'zim ham ancha yozganman. Lekin qo'shimcha qilish mumkiniki, inson hayoti tushga o'xshab



qoladi, ilojisizlik va imkonsizlikni butun vujuding bilan tuyusan va har bir kun kurashlar ichida kechadi. Jinoyatchilar to'dasi ichida ularning jaholatiga toqat qilib yashash bilan birga zulmlarga chidab berish u qadar yengil emas. Ana shu lahzalarda inson o'z qadri haqida, balki umuman odamzod jonining qadri haqida o'ylab qolarkan. Shunda inson qadri qadri qadri qadri ham baholanmasligini ko'rgach, "dunyoda adolat va marhamat, samimiyat va rostgo'ylik bor" degan gap yolg'onga aylanadi. Kishi turli hiyla va aldovlar bilan bo'lsa-da, jonini saqlab qolish uchun kurashga kiradi. Bu onda insoniylik va axloq, sharaf va hamiyatni himoya qilish jonn xatarga qo'yish bilan tenglashadi.

Aniq eslayman: 2016-yil iyul-avgust oylarida qop-qorong'i hibsxonada yarim tungacha kaltaklanayotgan mahbuslar ohu faryodini tinglar, shuningdek, Jasliqdan, Navoiydan, Qashqadaryodan tergov uchun qaytadan hibsxonaga chaqirilgan mahkumlar bilan subhbatlashar ekanman, o'zimga o'zim aytar edim:



"KARKIDON" KO'RKI SAYYOHLARNI ROM ETMOQDA

— Bu yer bizga begona emas. Lekin shu kunga qadar dam olish uchun kelmaganmiz, — deydi Quva tumanidagi "Turk" mahalla fuqarolar yig'inida umrguzaronlik qilayotgan Muzaffar Qodirov. — Yillar davomida dor yo'li tortilib, harakatlanuvchi osma kabinalar qo'yiladi. Ular ikki qirg'oqni bir-biri bilan bog'laydi va dam oluvchilarga hayajonli, unutilmas taassurot qoldiradi. Uning qirg'og'ida cho'milish havzalari, suv atraksionlari, quyosh nurida toblanish uchun sharoitlar yaratilyapti. Bolajonlar uchun qum burchaklari tashkil etilmoqda.

Tasavvur qiling: 2016-yil 22-iyul kuni uydan chiqib, bedarak ketganman. Isiz. Hech kim mening qayerda ekanimni bilmagan. Bu chin ma'noda o'g'irlash edi. Odam o'g'irlash. O'g'irlar kim bo'lganini bugun hamma biladi. Otonamning ahvolini tasavvur qilavering.

2017-yil 4-aprel. Chorshanba edi, adashmasam. Ilk marta meni ko'rgani uydaqilirim qamoqxonaga keldi. Roppa-rosa 7 oy 12 kun — hayotimda eng uzoq muddat onam meni, men onamni ko'rmagan vaqt.

Keyinchalik onam aytdi: "Tunu kun seni o'yilayverib, tomog'imdan bir tomchi suv, bir tishlam non o'tmay qoldi. Shunchalik ko'p o'yiladimki, Akrom degan bolani tuqqanmim, shunday bolam bormidi deb qoldim... Kechalari yuragim ortimga tortib uyg'onar edim. Nafas yetmasdi. Shu vaqtlarda qamoqda Akromni azoblashayotgan bo'lsa-ya... Akromni urayotgan bo'lsalar-a, deya xavotirga tushar edim..."

Men o'z onam haqida aytayman. Lekin O'zbekistonda bunday onalar minglab edi. Bir vaqtning o'zida, tunu kun minglab onalar yurak og'rig'idan uyg'onib ketardi. Ularning Yaratganga iltijo qilishdan o'zga yo'li yo'q edi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev lavozimga kirishishi bilanoq zulum zanjirlarini birma-bir sindirishga kirishdi. Bu hodisaning hosilasi 2017-yil yozining boshidan boshlab qamoqxonalarda ko'rindi.

Davlatimiz rahbari 2020-yil 27-avgust kuni bir guruh mahkumlarni afv qilish haqidagi farmonni imzoladi. Afv etilganlar orasida mening ham ismim bor edi. Ammo ozodlikka chiqqim, endi bayram degani emas ekan. Ich-chingga o'mashgan zulum zahmati, og'riqlar seni har narsadan shubhhalanishga, odamlarga ishonmaslikka yetaklaydi. Aytilyotgan yaxshi gaplar yolg'on va tuzoq kabi ko'rinadi. Ya'ni erkin hayotga qo'shilib ketish ham og'ir jarayon. Bu xuddi qayta tug'ilishdek gap.

Umum davlat meni tashlab qo'ymadi. Har tomonlama qo'llab-quvvatlatdi. O'zimizni yaxshi his qilishim, o'zimizni tutib olishim uchun

ko'maklashdi. Otam hamisha "Biz Shavkat Miromonovichdan qarzdormiz. Uning, eng avvalo, oilamizga qilgan yaxshiliklarini unutishimiz mumkin emas. Qolaversa, xalqimizga, yurtimizga qilayotgan xizmatini ta'riflab, tavsiflab tugatish imkonsiz. Biz Prezidentimizning haqqiga kechayu kunduz duo qilishimiz kerak", deb aytdi.

Prezidentimizning faqat shaxsimga qilgan yaxshiligi, bag'rikengligiga suyanib so'z aytam, kimlar uchun biryoqlama tuyular, lekin uning yuritayotgan siyosatiga nazar solib, bunday xulosa qilaman: davlatimiz rahbari uzoqni ko'radigan, vaziyatni to'g'ri baholaydigan, insofni va diyonatli inson. Xalqi va Vatani uchun jonini beradigan, xalqning muhabbatini, ishonchini qozonib, duosini olayotgan shaxs.

Davlatimiz rahbari mamlakatda kichik haqsizlik ko'rsa ham jim turgani yo'q. Zaracha zulimga rozi bo'lmaydi. Odamlarning birorta murojaati havoda muallaq qolmayotir. Har bir holat o'rganilmoqda, hujjatlar, dalillarga muvofiq tahlil etilmoqda; Prezidentimiz eng yaxshi usul va yo'llar bilan mamlakatni qudrati, elni rozi qilish, xalqning salohiyatini yuzaga chiqarib, butun dunyoda o'z o'rnimizni topishimiz uchun kurashmoqda.

2016-yildan keyin shu kungacha — 10-yil davomida yana bir avlod katta hayotga kirib kelmoqda. O'n yoshli go'daklar yigirma yosh bo'ldi. Bugun ularda biz qo'ruv va dahshatni ko'rmayapmiz. Ularda erkin ruhi ko'ryapmiz. Shatranj ustalari Javohir Sindorov, Nodirbek Abdusattorov, Angliyada to'p tepayotgan Abduqodir Husanov va jahon bellashuviga yo'l olgan futbolchilarimiz ham ana shu erkinlikning hosilasi deb o'ylayman.

Dunyo sahnasi tinch emas. Shunday murakkab pallada Prezidentimizning oqilona, jasoratli va donishmandona qarashlari, yondashuvlari bilan O'zbekiston mavqeini saqlab, hatto yanada yuqori darajaga ko'tarilmoqda.

Yurtimizga erkin ruh qaytdi. Xalqimiz bir kuni shunday kunlar kelishini hatto tusha ko'ra olmay qolgan edi. Ammo bugun hammasi haqiqatga evrilmoqda.

Ne'matning ziyoda bo'lmog'i shukr qilish bilan. Bu ne'mat va yaxshiliklarni saqlab qolish uchun har bir inson chin dildan shukr qilishi kerak ekan. Ya'ni yaxshiliklar sababchisi haqiga duo qilish; o'z vazifasini chin dildan bajarish; ilmu ma'rifatini oshirish uchun intilish, adolat va insofni bo'lib odamlarga yaxshilik qilish; keraksiz gaplar, g'iybat va bo'htonlarga e'tibor bermaslik — ana shular shukrning tajalliyalaridandir. Ayniqsa, ilm ahli, ziyolilarning xalqimizga bu borada so'z bilan, go'zal nutq va chiqishlar bilan, aniq va hayotiy misollar bilan haqiqatlarimni almog'it, ma'rifat tarqatmog'i maqsadga muvofiqdir. Bu taraqqiyot va tinchlik-xotirjamlikni himoya qilish yo'lidagi ulkan xizmat sanaladi.

qilish orqali byudjetga 3 milliard so'm tushum hamda 5 million dollarlik xizmatlar eksportini ta'minlash ko'zda tutilgan. Bu yerda motokross maydonlari, ikki kilometrlilik dor yo'li, karting va golf maydonlari ham tashkil etilyapti. Belgilangan rejaga ko'ra, majmua keyingi yili to'liq quvvatda ishga tushiriladi.

Keng paykallarga yashil poyandoz to'shalgandek. Dimog'ingizga turfa gullar ifori uriladi. Ko'z ilg'amas kengliklar bo'ylab yastanib ketgan bog'rog'lar, sayilgohlar dam oluvchilar bilan gavjum, fayzli.

"Karkidon"dagi ishlar inson tafakkuri bilan yaratilgan chinakam mo'jiza, — deydi quvalik bog'bon Karimjon Ashurov. — Bu loyihalarning barchasi ko'z o'ngimda va juda qisqa muddatlarda amalga oshganini ko'rib, xalqimiz salohiyati, kuch-qudratini dildan his qildim, g'ururlandim. Oilamiz a'zolari bilan birga shu manzilga yaqin hududda intensiv o'rikzor barpo etganmiz. Avvallari bu manzilga zarur yumush bor kishilargina kelardi. Endi hammasi o'zgarib ketdi. Uzoq-yaqindagi biron-bir qo'ng'iroq qilib, sayohatga kelish istagini bildiriyapti. Ularni ikkilanmay sayohatga chorlayapman. Aholi farovonligi yo'lida yaratilgan qulayliklar yangi tashabbuslarga ham qanot bo'lyapti. Ayni kunda 80 gektarli bog'imiz hududida agroturizmi yo'lga qo'yish bo'yicha yangi biznes-loyihalar ustida ishlayapmiz. Bu yangi ish o'rinlari, qo'shimcha xizmat, daromad degani.

Qisqasi, "Karkidon"ning ko'rku jamoli kundan kun o'zgarib, yangi manzaralar ichra yangilanib bormoqda. Hudud qiyofasini tubdan o'zgartirib yuborgan keng va ravon yo'llar, muhtasham imoratlar, yashil mayazorlar dam olish xiyobonlari qadim maskanning "tashrif qog'ozi"ga aylandi.

Rasuljon KAMOLOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Publication information including address, phone numbers, website, and subscription details for 'Yangi O'zbekiston' newspaper.